

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

NEMIS VA FRANSUZ TILLARI KAFEDRASI

**«GYOTE SHE'RIYATI POETIKASI VA UNING
O'ZBEKCHA TARJIMASI»**

MAVZUIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: «Filologiya va tillarni o'qitish
(nemis tili)» ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-
kurs talabasi Rohatova Zarnigor

Rahbar: (darajasi, unvoni, FISH).
Sadiqov Zohid, filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi. Kafedraning__ sonli bayonnomasi.
«__» _____2019 yil.

GOETHE SHE'ERiyATI POETIKASI VA UNING O'ZBEKCHA TARJIMASI

Mundarija

Kirish

Asosiy qism

1. bob. Gyotening tarjimai holi to'g'risida

1.1. Gyotne hayoti va ijodi to'g'risida

1.2. Gyotne shariyatining o'ziga xos xususiyatlari

2. bob. Gyote lirik merosi tarixi va tadrijiy taraqqiyoti to'g'risida.

2.1. Gyotening she'riyatining dastlabki namulalari

2.2. Gyotening "G'arbu SHarq devoni" tarjimalarining tarixi va talqini xususida.

3.bob. Goethe she'riyati tarjimasi xususiyatlari.

3.1. Gyote lirikasining o'zbekcha tarjimasida lirik qahramon ruhiy holatini qayta yaratish.

3.2. Gyotening „Tungi sayyoh“ she'ri tarjimalarining qiyosiy tahlili.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Jahon adabiyoti tarixida shunday siymolar borki, ular yaratgan soʻz sanʼati namunalari asrlar osha avloddan avlodga oʻtib, tobora oʻz jilosini taratib boraveradi. Ana shunday buyuk allomalarni yetkazib berishda nemis adabiyotining ham alohida oʻrni bor. Lessing, Herder, Schillerlar qatorida Gyothening buyuk oʻrni borligini alohida taʼkidlash kerak. Johann Wolfgang Gyothe nafaqat nemis adabiyotining, balki jahon adabiyotining qomusiy, buyuk siymolari sirasiga kiradi. Uning ijodida katta oʻrin tutadigan lirik va falsafiy sheriyati poetikasini oʻrganish oliy taʼlim tizimi nemis tili bakalavriat bosqichi talabalari hamda nemis adabiyoti bilan qiziquvchilar uchun alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy ishning maqsadi va vazifasi. Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi Johan Gyothening sheʼriyati va uning oʻzbekcha tarjomalari xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

Gyothe hayoti va ijodiga munosabat bildirish;

Gyothe sheʼriyati poetikasi boʻyicha nazariy tadqiqotlarni oʻrganish va umumlashtirish;

Gyothening dastlabki sherlari poetikasini oʻrganish;

Gyothe asarlarining oʻzbekcha tarjimalari tarixini tahlil qilish;

Gyothe sheriyati oʻzbekcha tarjimalarining asliyatga muqobillik darajasini oʻrganish;

Sheʼriy tarjima talablaridan kelib chiqib Gyothe sheʼrlarining oʻzbekcha tarjimalarida qoʻllanildan metod va usullarga munosabat bildirish.

Malakaviy ishning ishlanganlik darajasi. Nemis shoiri va mutafakkiri Johan Wolfgang Gyothe ijodi boʻyicha mamlakatimizda Gaybulla Salomov, Salim Jabbor, Sadriddin Salim, Roviyajon Abdullayeva, Yanglish Egamova, Akmal Saidovlar tomonidan bir qator nazariy va adabiy tanqidiy ishlar amalga oshirilgan. Ammo Gyothe sheʼriyati poetikasining oʻzbek tiliga tarjima qilish masalasi hali maxsus tadqiqot obʼekti boʻlganicha yoʻq.

Malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Mazkur malakaviy ishdan Oliy o'quv yurtlari nemis tili yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalari "Tili organilayotgan mamlakat adabiyoti", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Mamlakatshunoslik" kabi fanlarni o'rganishda, shuningdek, kelajakda nemis adabiyoti jumladan, Gyothe ijodi bo'yicha kurs ishi, referat hamda bitiruv malakavoy ishlar yozishda foydalanishlari mumkin.

Malakaviy ishning tuzulishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 3 bobdan iborat asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Asosiz qism

1. bob. Gyotening tarjimai holi to'g'risida

1.1. Gyote hayoti va ijodi to'g'risida

Gyote G'arb va SHarq mamlakatlaridagi millionlab muxlislarini hali-hanuz hayajonga solib kelayotgan «Faust», «G'arbu SHarq devoni», «Yosh Verterning iztiroblari» kabi shoh asarlarini yaratgan. Bir-biridan dilbar she'rlar yozgan.

Ayniqsa, mumtoz nemis shoiri uzining mashriqzaminga bulgan hurmatini, Sa'diy, Hofiz, Xayyom, Jomiy, Navoiylarga muhabbatini yolg'iz ijodida emas, balki ko'pqirrali faoliyatida, hayot va tafakkur tarzida ham namoyon eta olgan. Sevimli shoirlarimizdan birining ta'biri bilan aytganda, Gyote Sa'diy kabi jahongashta, Jomiy kabi piri murshid, Navoiydek davlat arbobi va Hofizu Xayyom kabi devonavash qalb egasi bo'lgan. Gyotening SHarqqa bu qadar yaqinligi, SHarq adabiyotiga bemisl mehru muhabbati va yuksak ehtiromi, SHarq ziyolilari, shu jumladan, o'zbek ijodkorlarining e'tibori markazidan chetda qolmadi, albatta. Uning asarlarini XX asr o'rtalaridan boshlab dastavval rus tili orqali o'zbekchaga tarjima qilishga kirishildi. Bunda Maqsud SHayxzoda, SHukrullo, Erkin Vohidov kabi hassos shoirlarimizning xizmati katta bulganini ta'kidlash joiz. Keyinchalik Sadriddin Salim Buxoriy, Posho Ali Usmon, YAnGLISH Egamova, Nosir Muhammad kabi fido yi shoiru olimlarimiz, mohir tarjimonlarimiz tashabbusi bilan Gyote asarlarini bevosita asliyatdan - nemis tilidan o'zbek tiliga o'girish tajribasiga o'tildi.

Eng muhimi, istiqlol davri aynan bir asarning faqat bitta tarjimasinigina nashr ettirishdek eski tuzumdan meros ma'naviy qatag'onga chek kuydi va muayyan asarning bir necha ijodkor tomonidan mustaqil tarjima qilinishi va nashr etilishi uchun yo'l ochdi. O'z navbatida, bunday tarjimachilik milliy ma'naviyatimiz xazinasidan joy olayotgan jahon adabiyoti durdonalarini - asliyatga yaqinligini ta'minlab, barcha qirralarini imkon qadar saqlab qolgan holda- badiiy nafis, falsafiy teran asarlarni o'zbek kitobxoniga tuhfa etish uchun zarur shart-sharoit yaratdi.

Gyote qalamiga mansub «G'arbu SHarq devoni»ning o'zbekcha tarjimasi alohida ahamiyat kasb etadi. Buni taniqli shoir, tarixchi va tasavvufshunos olim, yetuk tarjimon Sadridin Salim Buxoriy (oxirati obod bo'lsin) nemis tilidan bevosita o'zbekchaga tarjima qilgan. Gyotening «G'arbu SHarq devonshning nafaqat nomi, balki mundarijasidan ham SHarq nafasi ufurib turganini asar «Mug'anniynoma», «Hofiznoma», «Ishqnoma», «Tafriqnoma», «Ranjnoma», «Hikmatnoma», «Temurnoma», «Zulayhonoma», «Soqiynoma», «Masalnom», «Forsiynoma», «Xuldnoma» deb ataluvchi o'n ikki bobdan iborat ekani misolida yaqqol ko'rish mumkin. Tarjimon Sadridin Salim Buxoriy bu jihatlarga alohida e'tibor qaratgan. SHu o'rinda Gyote «Devon»idagi yuqorida sanab o'tilgan nazm boblarida mavjud she'rlarning ushbu kitobga to'liq kiritilmaganini eslatish joiz. Tarjimon bu haqqa to'xtalar ekan, kamtarlik bilan: «ayrim tarjimalarim o'zimga ma'kul bo'lmagani uchun ularni kitobga kiritmadim», deb qayd etadi. Kitobga tartib berishda aynan so'fiyona ruh va ohangga ega she'rlar saralab olinganiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, fikrimizcha, bu hol Gyote «Devon»ining mazmun-mohiyatiga mutlaqo ziyon etkazmagan. Aksincha, bunda daho shoir o'z umrining nuroniylik davrida nima sababdan ma'nau «SHarqqa hijrat qilish» uchun chog'langanini so'fiyona she'rlar misolida yanada aniq va ravshan aks ettirish imkoni kuchaygan. Ma'lumki, chorak asr davomida ushbu asarning ayrim boblari Sadridin Salim Buxoriyning bevosita nemis tilidan qilgan tarjimasida turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan va adabiy jamoatchilik tomonidan ili k; kutib olingan edi. G'aybulla Salomov, Najmiddin Komilov, Salim Jabborov, Kamola Bobojonova kabi mashhur adabiyotshunos va tarjimashunos olimlar o'zlarining ilmiy asar va maqolalarida tarjimon mahoratini yuqori baholagani shular jumlasidandir.

Fursatdan foydalanib, kitobxonga Gyotening ijodbog'idan mana shunday yana bir ajib guldasta armug'on etgan o'zbek tarjimonlari xizmatiga alohida urg'u berar ekanmiz, jahon adabiyoti xazinasiga salmokdi hissa ko'shgan daho shoirning bu soha namoyandalariga bergan ta'rifini eslatishni lozim topdik: «Tarjimonlarni serg'ayrat, tinib-tinchimas sovchilarga o'xsh atging keladi, ular bizga yarim pinhon go'zallikniig

maqtovini keltirib, uni yuksak darajada yoqimli qilib ko'rsatadilar; ular asliyatga zo'r, kuchli ishtiyoq uyg'otadilar».

Alalxusus, ushbu kitob boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, shu jumladan, G'arb va SHark; o'rtasida adabiy aloqalarni yanada rivojlantirish, o'zaro adabiy ta'sir muammolarini o'rganish yo'lida muhim qadam bo'lishiga ishonamiz.

Gyotening yoshligi

(1749-1771)

Frankfurt(Mayn)lik kayzer maslahatchisi Yohann Kaspar Gyote va uning rafiqasi bo'lmish Katarina Elizabet (qizlik familiyasi Tekstor) xonim xonadonida 1749 yil 28 avgustda birinchi farzand dunyoga keladi. Oila boshlig'i o'ziga to'q oila bo'lib, nihoyatda o'qimishli, buning ustiga san'at shaydosi ham edi. U 38 yoshida shaharning obro'li fuqarosi, sud kengashi raisi janob Tekstorning 18 yoshli qiziga uylanadi. O'smirning bolaligi hamon o'rta asrlarga xos bo'lgan, yolg'iz Venadagi imperatorga tobe shahar ko'chalarida kechdi, u maktabdosh o'rtoqlari bilan talashib-tortishdi, o'zi yashaydigan mavze chor-atrofini qiziqib o'rgandi, qo'klamgi va quzgi yarmarkalarni zavq bilan tomosha qildi hamda 1764 yilda - 14 yoshida imperator Yozefga toj kiydirish marosimi tantanalarining guvohi bo'ldi. Lissabondagi zilzila uni larzaga solgan paytda olti yoshda edi. To'qqiz yoshida chechak kasali bilan og'ridi. Uning yana to'rt singlisi dunyoga keladi, biroq undan bir yarim yosh kichik bo'lgan Korneliyadan tashqari barchasi bu olamni erta tark etishadi. Ota o'g'li va qiziga alohida g'amxo'rlik qo'rsatib, ularga o'zi saboq beradi, shuningdek, husnixat va ingliz tili darslari uchun muallimlarni jalb etadi. Kitobsevar oilada mutolaaga keng o'rin beriladi. SHuning uchun ham bolakayning ko'lidan kitob uzil-maydi, u ayniqsa, Injil, Tavrotni sevib o'qiydi, Rante - qarzga berilgan puldan, qimmatli qog'ozlardan keladigan daromadlar hisobiga yashovchi sudxo'r degan ma'noni bildiradi. U hatto bir necha kreytser sarflab, xalq sevib o'qiydigan kitoblarni ham sotib olib, mutolaa qiladi. SHunday qilib, yosh Gyoteda adabiyotga havas, ishtiyoq erta uyg'ondi. Onasi unga hikoyatlar so'ylab berardi, buvisi

esa navqiron nabiraga «qug'irchoq teatri»ni sovg'a qiladi. Avstriya bilan Prussiya o'rtasidagi etti yillik urush sababli Frankfurtni 1759 yilda fransuzlar ishg'ol etib, shaharga farang teatr ansambli kirib kelganidan so'ng, u endi tez-tez teatr ga tushib, spektakllar tomosha qila boshlaydi.

Bora-bora shahar ichkarisi va tashqarisida jami bo'lib, etti ming nafar fransuz askarlari joylashtiriladi. Imperator noibi Kot de Torank janoblari Gyotelar xonadoniga joylashadi, bu albatta, prussiyaliklar tarafdori bo'lgan uy sohibini qattiq tashvishga soladi. Bolalar esa aksincha, bundan xursand bo'lishadi. San'at ishqibozi bo'lgan zobit bir oz vaqt o'tib, frankfurtlik ko'plab san'atkor, rassomlarni, shu jumladan, Gyoteni ham o'z huzuriga chorlaydi. O'g'li 16 yoshga to'lgach, ota uni o'qitish taraddudiga tushadi. Uning ham o'zi kabi hukuqshunos bo'lishini istaydi, Laypzig uning uchun ayni muddao, chunki shahar zamonaviy, buning ustiga nomdor universitet ga ham ega edi. 1765 yil noyabr oyining boshlarida Gyote Laypzigga keladi. Bu paytga kelib shahar aholisi dunyoviylik kasb etgan va modaga berilgan edi. Gyote ham bunga befarq qarab turolmaydi. Endi uning xarajatlari yiliga ming talerni³ tashkil qilar, 5gqishi ham bir navi davom etardi. Gyote bo'sh vaqtlarida rassom va haykaltarosh Adam O'zer bilan tanishadi, mashhur olmon shoiri Kristian Fyurhtegott Gellert bilan tez-tez uchrashib, undan axloq va poetikaga doyr saboqlar tinglaydi. O'zidan bir oz kattaroq bo'lgan do'sti Ernst Wolfgang Bey Kreytzer bilan do'stlashadi. (Taler - eski nemis tangasi) Bu do'stlik Gyoteni lirik ijod sari ilhomlantiradi. Natijada Gyotening ilk ijod mahsuli - «Annetta» she'riy to'plami vujudga keladi. Kitob 1767 yil avgustida yozib tugallanadi. Annetta poetik to'qima bo'lmay, balki shoirning Laypzigdagi ilk ulkan muhabbatidan dalolat beruvchi obraz: Anna Katarina SHyonkopf - mehmonxona sohibining qizi edi. 1768 yilda u o'zining dastlabki dramasi - «Oshiq kayfiyati» nomli idilliyani yozib tutatadi. U mazkur janrda yaratilgan sara asar sanalsa-da, biroq idilliyalar davri bu orada asta o'z poyoniga etayotgan edi. Iyul oyi tunlarining birida kutilmaganda Gyotening qon bosimi ko'tariladi. Kun bo'yi «ana ketdim, mana ketdim» bo'lib, o'lim bilan olishadi. To sog'ayib, quvvatga kirgunicha 1770 yilning bahori boshlanadi. Xastalik chog'ida shoir kuchli hissiy-ruhiy tanazzulni ham boshidan kechiradi. «Ba'zan xayolimga, shunday

go'zal loyihalarim bo'lsa-da? SHularga qaramasdan pasxaga ham etolmay o'lib qolsam-a, degan bo'lmag'ur o'ylar keladi», deb yozgan edi u Katarinaga yo'llagan maktublarining birida. Endi u diniy kitoblar mutolaasiga beriladi. Bu orada Gyote 47 yoshli Syuzanna Katarina fon Klettenberg bilan tanishadi. Oradan yillar o'tgach, o'sha pietist «dilbar ayol»ning diniy mavzudagi yozishmalarini qayta ishlab, o'zining «Vilhelm Maysterning o'qish yillari» nomli romanida ulardan o'z o'rnida foydalanadi. «Aybdor sheriklar» dramasi - ushbu davrning adabiy mahsulidir. Beayov sarkazm bilan yo'g'rilgan ushbu asarda mavjud dramatik holat kuchli kulgi ostiga olinadi. Barcha protagonistlar tomonidan echib bo'lmaydigan, mushkul deb hisoblangan mu ammo pirovardida birgina afvi umumiy bilan hal bo'ladi-quyadi. (Idilliya - tabiat quchog'ida o'tadigan rohat va farog'atli turmushnpi tasvirlovchi she'riy asar.) Gyotening alkimyo sohasidagi tadqiqotlari ham xuddi shu davrga to'g'ri keladi. Nihoyat, uning bu boradagi izlanishlari inobatga olinib, endi uni Strasburgda yangi sarguzashtlar kutardi. U pietist YUng-SHtilling, «Bolalar qotili» dramasi (1776) muallifi Haynrih Leopold Vagner, jo'nab ketishidan sal oldin esa YAKob Mihael Raynhold Leni bilan tanishadi. SHu o'rinda uning Yohann Gottfrid Herderga bo'lgan munosabatini alohida ta'kidlash lozim; uning asarlari shoirida yangi g'oyalar uyg'otadi. Ayni paytda u zamonaviy ingliz hikoyanavislari ijodidan ilhomlanib, o'zining «Xalq qo'shiqlari to'plami» ustida ishni davom ettiradi.

1770 yilning kuzida Gyote bir do'sti bilan otda sayr qilib yurib, Zezenhaymga boradi. U erda ruhoniy Brion oilasi a'zolari bilan tanishib, Friderike Brion xonimga qo'ngil qo'yadi. Frankfurtga qaytganidan so'ng, ularga qayta diydor ko'rishish nasib etmaydi. Mahubasiga tez-tez maktublar yozib tursa-da, uning dilini hijron o'ti o'rtaydi, vijdon azobida qiynaladi. Oradan yillar o'tib, Gyote ushbu voqealarni o'zining «Gyotı fon Berlihingın» (1773) hamda «Klavıgo» (1774) dramalariga ko'chiradi.

Ijodkordan - vazirga

(1771 - 1786)

1771 yil 3 sentyabrda Gyote Frankfurt magistrat (municipal kengash)i huzurida advokat sifatida qasamyod qabul qilib, avvaliga shijoat bilan ishga kirishadi, biroq; keyinchalik ishdan ko'ngli soviy boshlaydi; u hammasi bo'lib atigi 28 sud jarayonini olib borgan, xolos. Undagi notiqlik mahorati, chuqur hukuqiy bilim tufayli undan yaxshigina yurist chiqishi mumkin edi. SHunday bo'lsa-da, serqirra iste'dod sohibi bo'lgan yigirma yoshli yigitcha asli nima ish bilan ug'ullanishni bilmay, ko'pincha boshi qotardi. 14 oktyabrda Gyote do'stlari huzurida «SHekspir

kuni» munosabati bilan nutk; so'zlaydi. U o'z nutqida nafaqat ingliz dramaturgi ijodiga doir, balki yangi zamon adabiyotining vazifasi nimalardan iborat bo'lmog'i lozimligi xususidagi o'z fikr va qarashlarini ham bayon etadi. O'zining bu boradagi ilk tajribasi sifatida «Gotfrid fon Berlihingen tarixi»ni

sahnalashtirgan va ushbu asar 1774 yilda ilk marta ko'yilib, katta muvaffaqiyat qozongan edi. Bu davrga kelib Gyote darmshtadtlik ijodkor Yohann Haynrih Merk bilan tanishadi. Merk unga dramaning chop etilishida ko'maklashadi va uni o'zi nashr qilayotgan «Frankfurter Gelehrte Anzeigen» uchun yozib turish va hamkorlik qilishga chorlaydi. Mazkur nashrda asosan, taqrizlar bosilardi. Merk Gyoteni

«Darmshtadt Ruhoniylar Jamiyati» davrasiga olib kiradi. Ushbu jamiyatga Merk va uning rafiqasidan tashqari, Herderga unashtirilgan Karolina Flaksland hamda saroy xonimlari a'zo edilar. 1772 yil may oyining o'rtalaridan to sentyabriga qadar Gyote yuridik amaliyot o'tash uchun Vetqlarda yashaydi. U erda u elchixona kotibi Yohann Kristian Kestner va uning qaylig'i SHarlotta Buff bilan tanishadi, ular bilan do'stlashib, mazkur xonadonga tez-tez borib turadi. 11 sentyabrda Gyote Vetqlarni tark etadi. Oradan bir oy o'tgach, u erda o'zi tanigan elchixona kotibi Karl Vilhelm o'zini otib o'ldirganligini eshitadi. SHu tariqa Gyoteda asta-sekin bo'lg'usi «YOsh Verterning iztiroblari» romanini yozish g'oyasi tuzila boshlaydi. 1773 yil Gyote o'zini bir oz yolg'iz his qiladi, Herder bilan Karolina turmush kuradilar, singlisi Korneliya esa uning yo'qligida Yohann Georg SHlosserga unashtirilgan bo'lib, u ham unga turmush ga chiqadi. Darmshtadt jamiyati esa tarqala boshlaydi. SHoir ijodi qaynab-toshadi, u ko'plab fragmentlar, xatlar, dramalar, epistolyar (maktublardan iborat) she'rlar,

romanlar yozishga kirishadi. 1774 yilda u o'zining ikki buyuk asarini: fevral bilan aprel orasida «YOsh Verterning iztiroblari»ni, may oyida esa «Klavigo» dramasini yozib tugatadi. Tez orada piesa muvaffaqiyat qozonadi, roman esa muallif nomini butun Olmoniyaga mashhur qiladi. Kitob qayta-qayta nashr etiladi. Keyingi yillar mo bay ni da Gyote ko'p sayohat qiladi, ko'plab do'stlar orttiradi. SHveydriyalik teolog, yozuvchi Yohann Kaspar Lavater, Fridrih Maksimilian Klinger va Haynrih Leopold Vagner shular jumlasidandir. Klingerning «Bo'ron va hujum» (1776) dramasi yangi adabiy davrni boshlab bergan bo'lsa, Gyote, Klinger hamda Vagner ana shu davrning frankfurtlik dramaturglari edilar. Gyotelar xonadonida olmon she'riyatining mashhur namoyandasi Fridrih Gotlib Klopshtok va «Gyottinger Muzenalmanax» noshiri Haynrih Kristian Boye mehmon bo'lishadi. Gyote ularga o'zining «Faust» asaridan ilk sahnalarni o'qib beradi. 1774 yil dekabrda Gyote Frankfurtga tashrif buyurgan Saksoniya-Vaymar shahzodasi Karl Avgust va uning akasi Konstantin bilan tanishadi. Karl Avgust shoir bilan bo'lgan muloqotdan behad mutaassir bo'ladi va uni Vaymarga taklif etadi. Ushbu taklifga binoan Gyote 1775 yilning 7 noyabrda Vaymarga keladi. O'sha davrdagi Saksoniya-Vaymar-Ayzenax geruogliklari bugungi okrugchalik katta bo'lmay, unda o'sha paytda atigi yuz ming nafar aholi yashardi. Gyote 700 xonadonga ega bo'lgan, aholisi dehqonchilik orqasida kun kechiradigan shaharcha bilan yaqindan tanisha boshlaydi. Uning 1776 yil fevral oyida yozilgan maktublaridan birida jumladan, shunday satrlarni o'qish mumkin: «Mana, o'lka hayoti bilan ham tanishayapman, bu men uchun juda qiziqarli. Geruogham bundan mamnun. (...) Frau fon SHtayn dilbar ayol, unga, nima deydi, juda bog'lanib qoldim. Geruoginya Luiza esa farishtaning o'zginasi. Geruogning onasi bilan ham munosabatlarimiz yaxshi, u bilan ko'pincha hazil-huzul qilib vaqt qanday o'tganini ham sezmay qolamiz.»

Gyote Vaymarga tobora mahkamroq bog'lana boradi. Geruog unga ilk ko'klamdayoq chorbog' tuhfa qiladi, u endi mulkdor sifatida tub fuqaroga aylanadi. Uni Vaymarga bog'lab turgan yana bir rishta o'zidan etti yosh katta bo'lgan, oilali saroy xonimi SHarlotta fon SHtaynga bo'lgan cheksiz muhabbati ham edi. Gyote geruogning

oliy maqomdagi maslahatchilar kengashi hisoblangan «maxfiy konsilium» tarkibida maxfiy maslahatchi lavozimida zo'r g'ayrat bilan ishga kirishadi. Jeyms Kuk o'zining dunyo bo'ylab uchinchi sayohatiga o'tlanayotgan, Adam Smit «Xalk; farovonligining tabiat va sabablari» haqida bosh qotirayotgan hamda Amerika Qushma Shtatlari uz mustaqilligini e'lon qilgan bir paytda ulug' shoir ixtiyoriy ravishda kichkinagina geruoglikdagi yo'l qurilishi, uch dalalik almashlab ekish tizimiga ixtisoslashgan xo'jalik va davlatdan qarzdorlik singari muammolar bilan shug'ullana boshlaydi. SHu bilan birga she'r yozishni ham unutmaydi.

«Haruga qishki sayohat», «Insoniyat sarhadlari», «Ilohiyot» singari buyuk she'rlar qatorida u frau fon SHtaynga ham ajoyib she'riy maktz^blar bitadi, saroy hamda Vaymar havaskorlar teatri uchun asarlar yaratadi. «Ifigeniya» (1779)ning ilk varianti, «Torkvato Tasso» (1780) va boshqa asarlar shular jumlasidandir. 1777 yil 8 iyun kuni uning singlisi Korneliya ko'zi yorish chog'ida olamdan o'ga.di. 1782 yilning may va iyun oylari shoir uchun birin-ketin g'am va shodlik olib keladi: 25 may kuni otasi vafot etadi, 2 iyun kuni u Xotin-kizlar maydonida o'zi uchun ajratilgan salobatli uyga kuchib o'tadi, 3 iyun kuni esa imperator Yozef II tomonidan berilgan darxon yorlig'ini qabul qilib oladi.

Biroq uni behad baxtiyor qilgan narsa butunlay boshqa bir voqea edi: 1784 yilning 27 mart kuni o'sha paytga qadar faqat hayvonlarda kuzatib kelingan o'rta jag' suyagi odamzodda ham mavjudligini aniqlaydi. Biroq uning bu kashfiyoti Kassel, Gyottingen va Laydenlik yirik mutaxassislar tomonidan inkor etiladi.

She'riyat bilan bir qatorda Gyote nafaqat anatomiya, balki petrifikasiya (toshga aylanish) jarayoniga ham qiziqadi, u tog' jinslari namunalarini ishtiyoq bilan yig'a boshlaydi (shoir vafotidan so'ng undan 18 ming ma'dandan iborat kollekuiya meros qolgan). Uning optikaga butun umr bo'yi qiziqqanligi asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Paleontologiya yo meteorologiya sohalari bo'ladimi, hayvonlar yoki o'simliklar metamorfozasi bo'ladimi, bularning barchasi hamisha shoirningdiqqat markazida bo'lgan.

Italiyaga sayohat

(1786-1788)

«Endi tan olib ayta olamanki», deb yozgan edi Gyote 1786 yilning 3 noyabrida Karl Avgustga yo'llagan maktubida, «avvallari bironta lotincha kitobni, Italiya o'lkasi tasvirlangan bironta rasmni ham ko'rmagan edim. Ushbu mamlakatni ko'rishga bulgan quchli ishtiyoq mana, nihoyat amalga oshib, do'stlarim va vatanning benihoya aziz ekanligini dildan his etib, endi qaytishni ixtiyor qilmoqdaman.»

Veneçiyada ikki hafta turgach, nihoyat u Rimga etib boradi. Hamrohlar rassomlar bo'lib, Yohann Filipp Myoller nomi ostida u ham go'yo rassom qiyofasida ular bilan birga yurardi. Gyote o'zi bilan hali tugallanmagan dramalari - «Ifigeniya», «Tasso», «Egmont» va «Fa Metamorfoza -o'zgarish, turlanish, yangi shakl olish; evolyuciya natijasida asosiy organizmlar shaklining o'zgarishi, o'simliklar va jonivorlarning bir bosqichdan o'tkinchi bosqichga, bir shakddan ikkinchi shaklga o'tishi kabilar safar davomida yozib tugatishni mo'ljallagan edi. Ayni chog'da, o'zining rassomlik ishlarini takomillashtirishni ham ko'zlagandi. Haqiqatan ham Gyotening bu boradagi faoliyati ancha sermahsul buladi, pirovardida u uyga 850 ta raem bilan qaytadi. Gyote «mangu shahar» bilan tanishishda davom etar ekan, italyan tilini yaxshi bilganligi tufayli odamlar bilan erkin muloqotda bo'ladi, tabiatni kuzatadi, o'lkani urganadi. U uch marta Vezuviyga chiqadi, ikkinchi bor chiqishida Kegelberg cho'qqisida yurak xuruji tutib qoladi.

Ko'hna Siçiliya oroli bo'ylab sayr Italiyaga sayohatining eng zo'r sarguzashtiga aylanadi. «Italiya Siçiliyasiz hech qanday taassurot qoldirmaydi», deb yozgan edi Gyote. «O'zingni tevarak-atrofiging dengiz bilan o'ralgan holda ko'rmabsan, demakki, olam va unga o'z munosabating haqida hech qanday tasavvur-tushunchaga ega bo'lmabsan.» Palermo botanika bog'i bilan tanishuv ham shoirda katta qiziqish uyg'otadi. Ushbu maskandan olingan taassurotlar keyinchalik ilmiy dalillar bilan «O'simliklar metamorfozasi» (1790) asariga quchadi.

Bulardan tashqari, mamlakatdagi Jirjenti, Kaltanizetta, Katania, Taormina, Messina singari yana ko'plab joylar ziyorati ham Gyoteda unutilmas taassurot qoldiradi.

Gyote Italiya bo'ylab sayohati mobaynida samarali ijod qilishga ham ulguradi: «Ifigeniya», «Egmont» hamda «Tasso» kabi katta dramalarini yozib tugallaydi. To'g'ri, «Tasso»ning yakunlanishigahali bir oz qolgan edi. «Ushbu ijod mahsuli hayotimda yana bir yangi sahifa ochishim uchun menga kuvonch va ruh bag'ishlaydi», deb yozgan edi u vataniga jo'nab ketishidan sal oldin, Karl Avgustga yullagan maktubida. Darhaqiqat, Gyote qaytib borgach, vazirlik lavozimining kerak-nokerak ishlaridan bir qadar xalos etilib, unga eng avvalo, san'at hamda ilmu iffon bilan shug'g'ullanishi: kutubxona, teatr va universitet boshqaruvi bilan mashg'ul bo'lishligi uchun barcha sharoitlar yaratib beriladi.

Behalovat yillar

(1788-1805)

Gyote qaytib kelgach, yana og'ir ahvolda qoladi. Karl Avgust safarga jo'nab ketadi, SHarlotta esa unga sovuk; munosabat bildira boshlaydi. «Do'stlarim tasalli-taskin berib, chorlash o'rniga, meni tushkun bir holatga solib qo'ydilar, (...) hech kim meni tushunmas edi». Eski munosabatlar sovigach, endi u yangi do'stlar orttiradi; olim va siyosatchi Vilhelm fon Humboldt (1788), shoir Fridrih SHiller (1790), jahongashta sayohatchi Georg Forster (1791), malika Amaliya fon Galliçin (1792) kabi mashhur kishilar bilan tanishadi. Qaytib kelganidan so'ng oradan uch hafta o'tgach, Gyote 23 yoshli Kristiane Vulpiusni uchratadi-yu, unga oshiq bo'lib qoladi. Italiya sayohatidan mutaassir va Kristianega bo'lgan muhabbatidan masrur Gyote 1788 yilda «Rim elegiyalarshni, kelasi yili esa «Tasso»ni yozib tugallaydi. 25 dekabrda ularning o'g'li Avgust dunyoga keladi. Oradan uch oy o'tib, Veneciyanadan Anna Amaliya xonimni olib kelish uchun u yana Italiyaga o'tlanadi, qaytib kelib, yana darhol gerçog ketidan Breslauga jo'naydi. U erda Prussiya Avstriya va Polinaga qarshi harbiy harakatlar boshlayotgan edi. Xayriyatki, tinchlik bitimi - «Rayhenbax Konvençiyasi» tuzilib, urushning oldi olinadi.

Gyote tabiatshunoslik ilmiga oid asarlar yozish bilan mashg'ul bo'ladi. O'simliklar metamorfozasini tushuntirishga urinish» (1790) asarini hamda o'zining «Optikaga doyr ilk maqolalar» (1791-1792)ini e'lon qiladi. Bulardan tashqari, u ranglar haqidagi

mufassal ta'limot ustida ishlashni davom ettiradi. Uningranglar ta'sirotlariga doyr qarashlarini o'z ichiga olgan ushbu asar, nihoyat 1810 yilda bosilib chiqadi.

1791 yili Gyotega Vaymardagi saroy teatriga rahbarlik qilish ishonib topshiriladi. U nafaqat teatr repertuari, balki aktyorlarning ijrochilik mahorati, til madaniyatidan tortib to sahna dekoratsiyasigacha bo'lgan ishlar konseptiyasini yaratib, uni muvaffaqiyat bilan amalga oshiradiki, pirovardida uning bu faoliyati keyinchalik «Vaymar uslubi» nomi bilan tarix sahifalaridan o'rin oladi. Keyingi yili shoirning Franziyadagi revolyucion

(inqilobiy) harbiy yurishlarda Karl Avgustga hamrohlik qilishiga to'g'ri keldi.

Urushning barcha azobukubat va dahshatlarini o'z boshidan kechirgan Gyote kelgusida inqilob mavzusida dramalar yozishga urinib ko'radi. Uning bu borada yaratgan epik asarlari: «Olmon muhojirlari bilan suhbatlar» (1795), «Ray-neke Fuks» (1794), «Hermann va Dorotea» (1798) eposlari va nihoyat, Franziyadagi harbiy yurish» (1792), «Maynu qamali» (1822) singari xotiralari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1794 yilning iyul oyi oxirlarida Yenadagi Tabiatshunoslar Jamiyatida bo'lgan yig'ilishdan so'ng, Gyote bilan SHiller o'rtasida eng sodda o'simliklar organizmi mavzusida suhbat bo'lib o'tadi. Mazkur musohaba ko'p o'tmay ikki buyuk siymo o'rtasidagi yaqin do'stlikka asos soladi. SHiller o'zining «Die Horen»nomli jurnali sahifalaridan Gyotening ijod namunalariga ham o'rin ajratadi. U ayniqsa, uning «Ertak» (1795) va «Vilhelm Maysterning o'qish yillari» (1796) romanidan zavqlanadi. SHu ikki yil ichida SHiller va Gyote o'zaro hamkorlikda 926 ta achchiq kulgili epigrammalarni o'z ichiga olgan «Xenien» nomli asarini yozishadi. SHundan so'ng tez orada SHillerning «Polikrat xalqasi», «Ibikus turnalari», «G'avvos», «Qo'lqop», Gyotening esa «Xazina izlovchi», «Afsungar shogirdi», «Tangri va raqqosa», «Afsona» singari asarlari lunyoga keladi.1790 yilda «Faust»dan ilk parcha» chop etilgan edi. SHillerning qistovi bilan Gyote 1797 yilning iyunida ushbu asar ustida yana ishlashni davom ettiradi. Ushbu buyuk asar qiyinchilik bilan bo'lsa-da, asta-sekin qog'ozga tusha boshlaydi. Nihoyat, tragediyaning birinchi

qismi tayyor bo'lib, chop etilgach, uni endi yana davom ettirish lozim edi, biroq; shu orada «Ranglar haqidagi ta'limot» (1810), 1811 yildan boshlab esa «She'riyat va haqiqat» kabi boshqa asarlar oldingi planga chiqib qoladi. Afsuski, Fridrix SHillerga «Faust»ning birinchi qismi bosilib chiqqanini ko'rish nasib etmadi. U 1805 yil 9 mayda 45 yoshida bevaqt olamdan o'tadi. Buyragi endigina darddan forig' bo'lgan Gyote ushbu qayg'uli xabarni eshitib, chukur iztirobga tushadi.

Hayotinig keying yillari

(1805- 1823)

Ushbu yillar mobaynida Gyote o'zidan to'qqiz yosh kichik bo'lgan berlinlik me'mor va musiqachi Karl Fridrih Uelter bilan tanishadi. Ular o'rtasida qalin do'stlik rishtalari bog'lanib, qizg'in xat yozishishlar uzoq yillar davom etadi. Mazkur maktublarni XIX asrning ilk 30 yillik davrida ro'y bergan muhim voqealarni o'zida aks ettirgan tarixiy hujjat deb atasa ham bo'ladi.

1806 yilda Gyote Karlsbadda dam olib qaytadi. Viroq uyda uni ko'ngilsizliklar kutib turardi. 1805 yilda Napoleon Austerliudagi uch imperator urushida avstriyaliklar va ruslar ustidan g'alaba qozongan edi. Oradan ko'p o'tmay, Prussiya ham urushga ko'shiladi, biroq; uning kuchli franquz armiyasiga bas kelishi kiyin edi. 14 oktyabrda Yenada bo'lib, Uch imperator urushi - 1805 yilda Austerliuda bo'lib o'tgan jang buni yaqqol tasdiqlaydi. Urush harakatlari nihoyat Vaymarga ham etib keladi... 19 oktyabrda 18 yil birga hayot kechirgan Gyote bilan Kristianening nikoh to'ylari bo'lib o'tadi.

Hayot va qizg'in ijod yana davom etadi. 1808 yilning muhim ijtimoiy voqealaridan biri - Gyote Erfurt va Vaymarda Napoleon bilan uchrashadi. 14 oktyabrda unga va Vilandga Napoleon tomonidan ta'sis etilgan Faxriy legion ordeni topshiriladi... Umr - oqar daryo deyishadi. O'tgan yillar ichida o'lim shoirni ko'plab do'stlari, yaqin kishilari va zamondosh laridan ayirdi. 1791 yilda Merk o'z joniga qasd qiladi, Herder (1803), SHiller (1805), Anna Amaliya xonim (1807), Gyotening onasi (1808) va Viland (1813) va-

fot etadi. 60 yoshga kirgan shoir endi ortga nazar tashlab, xotiralar bilan yashay boshlaydi. Kotibi Yohann Peter Ekkermann Gyote bilan bo'lib o'tgan suhbatlarini

qog'ozga tushiradi. 1810-1813 yillar orasida Gyote «She'riyat va haqiqat»ning ilk uch jildi ustida ishlaydi. Ushbu kitoblar o'kuvchilar tomonidan qiziqish bilan kutib olinadi va tezda sotilib ketadi.

Fors shoiri Hofizning devonini mutolaa qilgan Gyote uning she'riyatidan g'oyat ta'sirlanadi. Ana shu ta'sirot natijasi sifatida asta-sekin «G'arbu SHarq devoni» yuzaga keladi. Visbadenda Gyote bankir Yohann Yoaxim Villemerning asrandi qizi – 29 yoshida turmushga chiqqan Marianna bilan tanishib, unga Hofiz devonining tarjimasini taqdim etadi.

Ular orasidagi do'stlik rishtalari tez orada kuchli muhabbatga aylanadi. Ikki o'rtada qizg'in xat yozish boshlanadi. Maktublarning aksariyatini ishqiy mavzudagi she'rlar tashkil etadi. Asli shoirtabiat bo'lgan Marianna kuchli his-tuyg'ular ta'siri ostida shoirlilik qobiliyatini ham namoyon etadi. Oradan yillar o'tib, Gyotening «G'arbu SHarq devoni»dagi kamida 4 ta she'r shoira qalamiga mansub ekanligi ma'lum bo'ldi. 1816 yilda Kristiane ikkinchi marta sakta (miya-

ga qon kuyilishi)ni boshidan kechiradi. Buning oqibatida uremiya sodir bo'lib, bevaqt vafot etadi. Oradan yil o'tgach, Avgust fon Gyote 20 yoshli baron qizi

Ottilya fon Pogvishga uylanadi. YOsh kelin-kuyov Gyote xonadoniga yangi hayot nafasini olib keladi. Hademay nevaralar: Valter (1818), Wolfgang (1820) va Alma (1827) tug'iladi.

Gyote tabiatshunoslik sohasidagi tadqiqot ishlarini davom ettira borib, 1817 yilda «Morfologiyaga doir» va «Tabiatshunoslik, xususan morfologiyaga doir» asarlarini yaratadi. 1819 yilda «G'arbu SHarq devoni» bosilib chiqadi. «Vilhelm Maysterning sayohat yillari» (1821) keng kitobxonlar ommasini qamrab ololmagan bo'lsa-da, ushbu asar Eduard Myorike, Adalbert SHtifter, Gotfrid Keller hamda Hermann Hesse va Peter Handke singari atoqli shoir va yozuvchilar tomonidan ham sevib o'qilganligi ayni haqiqat. Mazkur asar ilovasida Gyote jahon adabiyoti tushunchasiga alohida to'xtalib o'tgan. Darhaqiqat, u bunga to'la haqli edi, chunki o'zi jahon matbuotini muntazamo'qib, quzatib borar, Skott, Bayron, Balzak, Gyugo, Merime, Didro, Volter singari jahon adabiyoti na-

moyandalarning durdona asarlarini sevib mutolaa qilar edi. SHu o'rinda yana bir haqiqatni aytib o'tish zarur dek tuyuladi, ya'ni agar Gyote jahon xalqlari adabiyoti dan bahramand bo'lmaganida edi, u «Faust»dek shunday mazmunan teran va shaklan mukammal buyuk asarni yarata olmagan bo'lardi, deyish mumkin.

1823 yil keksayib qolgan Gyote hayotida ikki muhim voqea bilan xarakterlanadi: Birinchi si, Vaymarga kelgan Ekkermann Gyotening kotibi sifatida ish Uremiya - buyrak kasallanishi sababli to'planib qolgan moddalar ta'sirida organizmning zaharlanishi boshlaydi. Ikkinchi voqea shuki, Mariynbaddagi yozgi davolanish chog'ida 74 yoshli shoir 19 ga kirgan qiz Ulrika fon Levetuovni yaxshi ko'rib qoladi. Mazkur sevgi qissasi «Mariynbad elegiyasi»da o'z ifodasini topgan. Noyabr oyida og'ir betob bulib yotgan Gyote huzuriga etib kelgan do'sti Uelter uning dardi ishq ekanligini his etib, bemorga o'zining yangi yozgan she'rlaridan o'qib beradi. Dekabr oyi o'rtalarida Gyote sog'ayib, yana ishga sho'ng'iydi.

Umrining so'nggi yillari

(1823-1832)

1825 yil 5 noyabrda Gyotening Vaymarga kelganiga ellik yil tuladi. Ko'p yillar dan buyon u o'zining har bir ish qunini soatma-soattaqsimlashgao'rgangan, bu esa unga yoshi bir joyga etgan chog'ida ham mislsiz darajada sermahsul ishlay olish imkonini berardi. Albatta u kundalik yozib borishni ham hech kanda qilmas edi. «Bajargan ishing bilan o'tgan umringning har bir kuniga bir nazar tashlasang, avvalo, faoliyatingdan qoniqib, o'zing shodlanasan, bu esa vijdonlilik, insof-muruvvat sari etaklaydi. Har bir lahza tarixga aylanar ekan, biz uni munosib baholash va qadrlashni ham o'rganib boramiz.» 1827 yilda SHarlotta fon SHtayn, 1828 yilda Karl Avgust, 1830 yilda esa uning rafiqasi Luiza xonim vafot etadi. Gyote ayniksa, dusti Karl Avgust o'limidan qattiq iztirob chekadi. U dafn marosimlarida qatnashadi, iyuldan to sentyabrgacha bulgan vaqtni esa Dornburgda yolg'izlikda o'tkazadi. U erda u bundan yarim asr muqaddam Karl Avgust bilan birga ajoyib kunlarni boshidan kechirgan edi. Gyote o'zining s5shggi tug'ilgan kunini nabiralari Valter va Volfgang bilan Ilmenauda o'tkazadi, Kikelhan tog'i cho'qqisidagi yog'och uychaga chiqadi. Bir paytlar u

uychanning janubga qaragan derazasi oldida tu-rib, devorga qalam bilan o'zining mashhur «Ueber allen Gipfeln ist Ruh» nomli she'rini bitgan edi. 82 yoshga kirgan shoir ushbu satrlarni qayta o'qirgan, beixtiyor ko'zlariga yosh keladi. «Ja, warte nur», takrorlaydi u so'nggi satrlarni, «balde ruhest du auch». Uning 1832 yil 25 fevralda yozgan maknublaridan birida shunday satrlarni o'qish mumkin:

«Men hamisha anglash, bilish va qo'llash mumkin bo'lgan barcha narsalarni tushunish hamda egallashga harakat qildim va kamina mamnuniyat bilan, shuningdek, boshqalarning e'tirofiga ko'ra ham shuni aytishim mumkinki, bu borada ko'plab muvaffaqiyatlarga erishdim. SHunday qilib, endi paymona ham to'lgan ko'rinadi, boshqalar, chunonchi, bilimdan kup narsa talab qiladiganlar umidsizlikka tushsalar, men bunga ishona boshlayapman.»

1832 yilning 16 martida Gyote gripp bilan og'rib, o'pkasi yallig'lanadi. 19-nchidan 20-nchigao'tar kechasi bezovtalanib, og'riqdan azob chekadi. Keyingi oqshom salomatligi yanada yomonlashadi. Dam karavotdan tushib, oromkursiga o'tirsa, dam yana o'ringa cho'ziladi. Ottiliya kechayu kunduz uning yonida bo'lib, holidan xabardor bo'lib turardi. Og'riq bir kuchayib, bir pasayar edi. Tongga yaqin, u bir oz tknchlanadi. Sana 22 mart ekanligini bilgach: «Demak, bahor boshlanibdi, endi dam olsak ham bo'lar ekan», deydi. SHundan so'ng, oradan hech qancha vaqt o'tmay u Ottiliya qo'lida jon beradi .

2. bob. Gyote lirik merosi tarixi va tadrijiy taraqqiyoti to'g'risida.

2.1. Gyotening devoni she'riyatining dastlabki namulalari.

Gyotening “G’arbu SHarq devoni”ning o’z talqinlari bor. Ushbu asarning o’zbekcha tarjimasiga o’tgan asrning oxirlarida taniqli buxorolik germanist olim, shoir Sadridin Salim qo’l urgan edi. Nihoyat ushbu tarjima 2012 yilda Toshkentdagi “Yangi asr avlodi” nashriyatining “Zakovat” rubrikasi ostida nashr etiladigan “Iohan Wolfgang Gyote” nomli kitobiga kiritilgan.

Gyote Hofiz ijodini Hammer Purgshtalning Hofizdan qilgan tarjimalari orqali o’rgandi. Bu tarjimalar Gyote ijodida yangi davrni boshlab berdi. U endi o’z muxoliflariga ramziy qahramon, kosa tagida nim kosa vositasida, sharqona she’riyat orqali kurasha boshladi.

Buyuk Gyote o’z kaltabin, johil, mutaassib raqiblariga qarshi kurashar ekan, Hofiz bamisoli bir vatandosh ustod singari unga yordamga keladi. Ortodoksal xristian ruhoniylari zamonasining taraqqiyparvar kuchlariga qarshi uyushgan edilar. Hofiz va Ulrix gutten qo’ng’ir va zangori chopon hamda jubba kiyganlar, ya’ni musulmon va xristian mutaassiblaridan qutulish uchun ozmuncha zahmat chekmagan edilar. “Menikilar esa – deb yozadi Gyote o’zining bir she’rida, - rosmena xristian kiyimini kiyib yuradilar”.

Demak, qaysi davr, qaysi el, qaysi yurt va qaysi din yoki mazhabga mansub bo’lishlaridan qat’iy nazar, Hofiz va Gyote raqiblarining shaklu-shamoyili boshqa bo’lsa ham, ularning niyat va maqsadlari bir xil – mash’um va xatarli edi. YAgona maqsad yo’lida qalam tebratgan san’atkorlar esa hamma vaqt va har qanday sharoitda ham bir-birlarini tushunadilar va umumiy til topa oladilar.

Gyotening “G’arbu SHarq devoni”dagi bir she’rda Zulayho Hotamga shunday murojaat qiladi: “Nega buncha holing parishon?” Hotam javob beradi: “Balasanmi, jasad – zindondir, jonni aldab unga qamaganlar”.

Hofizning ruboiylaridan birida o’qiymiz:

Eng yaxshisi, may bilan etaylik dil shod.

O’tkandagi orzuni qilib kamroq yod.

Zindonning asiri – bu omonat jonni

Bir damgina aqldan etaylik ozod.

G'.Salomov risolada ta'kidlab aytishicha, Corpus carcer (jasad-zindon) iborasi juda qadimiy bo'lib Цицерон uni yunoncha "jasad-qabr" iborasidan tarjima qilgan ekan. Bu birikma pifagorchilar, Pifagor shogirdi Filoley, Platon tillarida ham uchraydi. Plutarxning "Tasalli beruvchi nutqlar" asarida jon qafasga qamalgan qushga o'xshatiladi. Bu obraz Platondan navplatoniklargacha va ular orqali SHarq mutafakkirlarining asarlariga ham o'tadi. "Qamalgan jon" obrazini Gyote Hammer qalamiga mansub "Xazinalar" asarining ikkinchi jildida ham uchratadi. Bunda darveshlar jonni qafasga solingan yoki to'rga ilingan, undan ozodlikka chiqishga intilayotgan bulbulga o'xshatadilar¹.

Taniqli gyoteshunos olim A.L.Kesselning qayd etishicha, Gyote bu obrazni o'z "Devoni"ga taqlidan, an'ana yuzasidan ko'chirib qo'ya qolmasdan, balki uni Evropa reaksiyasi sharoitiga moslab, yangicha ma'no bergan holda qo'llaydi: butun ishkali jon zindon (tana) ichida bo'lganligida emas, balki o'sha zindonning o'zi turmaga qamalgan. Agar salgina bo'yin tovlansa bormi, "zindonning o'zini ham zanjirband qiladilar", shu tariqa sho'rlik jon G'.Salomov ta'biri bilan aytganda "ikki qavat zindon ichida qoladi".

Buyuk fors shoiri Hofiz SHeroziyning jahongir Amir Temur bilan hamda zabardast nemis adibi Iog'ann gyotening frantsuz fотиhi Napoleon Banapart bilan uchrashuvi, ular suhbatining mazmunida, Gyotening Hofiz shaxsi va ijodiga ehtiromi, "G'arbu SHarq devoni"da Temurga bildirgan munosabatida tarixning "takrorlanishi" va insonlar taqdirining monandligini ko'rishimiz mumkin.

Hofiz SHeroziyning, afsonaga ko'ra Amir Temur bilan uchrashib, bahs qilishlariga sabab bo'lgan mashhur bir g'azali borki, u quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Agar on turki SHerozi ba dast orad dili moro,

Ba holi hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo

Tarjimasi:

Agar ko'nglimni shod etsa, o'shal SHeroz jononi,

¹ Ўша китоб ... 17-бет

Qaro holiga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni.

SHarqshunos olim SHoislom SHomammedov shoir g'zallarining o'zbekcha nashriga yozgan so'z boshida mana bu afsolnani keltiradi. Amir Temur SHerozga qadam qo'ynagida uning huzuriga keksa, horg'in shoirni olib keladilar. Jahongir yuqorida keltirilgan g'azalga ishora qilib degan: "Samarqand bilan buxoroning shuhrati hamma yoqni tutsin deb, butun dunyoni zabt qilsamu, bularni atigi bir go'zalning qora xoliga tortiq qilib yuborishga qanday jur'at etdilar?" Hofiz esa bamaylixotir: "Azbaroyi qo'li ochiqligimdan qashshoqligim shu joyga etdi", - deb javob qaytargan. SHoirning bu hozirjavobligidan Temurning g'azabi pasayib, shoirga sarpo in'om etgan ekan.

Ana shu afsona Gyotega ham ma'lum edi. U ibn Arabshohning Jonson tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan xronikasi asosida o'z "Devon"iga kiritilgan "Qish va Temur" nomli asarini yaratadi. Qahraton kishning jahongir Temurga qarata aytgan so'zlari imperator Napoleonga nisbat berib yozilgan edi. Buni nemis shoiri o'zi e'tirof etadi. Qizig'i shundaki, afsonada hikoya qilinishicha, Temur bilan Hofiz uchrashganlari singari Gyote ham Napoleon bilan ko'rishgan va u bilan munozara qilgan. Taleyraning ma'lumot berishicha, shoir 1808 yil, 2 oktyabrda Erfurt shahrida o'tkazildayotgan kongress vaqtida Napoleon Banapart bilan uchrashgan. Napoleon Erfurt kongressida Aleksandr I ham ishtirok etganligini xabar qilib, Gyotega agar u Erfurt haqida biron narsa yozmoqchi bo'lsa, asarini podshoga bag'ishlashini maslahat beradi. Gyote e'tiroz bildiradi:

- Janob oliylari, bunga odatlanmaganman, men ijodimni boshlagan kezlardayoq, afsus-nadomat chekib yurmaslik uchun heya qanday bag'ishlovlar yozmaslikni odat qilib olganman.
- Lyudovik IV zamonidagi yozuvchilar bunday fikrda emas edilar, - pisanda qiladi Napoleon.
- SHundayku-ya, janob oliylari, - dadil javob qaytardi gyote, - lekin ularning hech qachon o'z qilmishlari uchun pushaymon emaganliklari xususida o'zlari kafil bo'lolmaydilar

Hofiz va Gyote ijod namunalaridan quyidagi keltirilgan misollarda ko'plab mushtarakliklarni uchratishimiz mumkin.

Hofiz yozadi:

Gul aytdiki qosh tanagohim bo'lsa,
Qochmasmi edim agar panogohim bo'lsa.
Bo'lmay gunohim kuydiradilar shunday,
Naylar edilar zarra gunohim bo'lsa.

Gyote yozadi:

“Men xuddi it singari, bir necha oylab azob-uqubat cheka turib sukut saqlashim mumkin edi; lekin muttasil o'z maqsadim sari intildim. Nihoyat, uni amalga oshirish kezi kelganda, men har qanday holda ham men bor kuchim bilan maqsad sari otildim. Qayday azoblar chekmadim! Ko'pincha eng oliyjanob ishlarim uchun meni qisti qafasga soldilar. (1821 yil 31 mart. Remerga yozgan xatidan).

Hofiz:

Murod izlab hayot behuda ketdi,
Falakdin menga qay xil foyda etdi.
Jahonda har kishiga do'st bo'ldim,
Bu qanday baxtki, u dushmanlik etdi.

Umiding uzma bu davru jahondan,
Vale tol bargidek titra zamondan.
Qarolikdan nari rang yo'q der ersang,
Qaro sochim oqardi, bu quyoshdan!

Gyote:

“Men ko'rishga ko'zim yo'q narsalarni ko'rganimda bag'oyat kayfim chog' bo'ladi. Negaki, har bir narsa qanday yaratilgan bo'lsa, shu holicha yaxshi deb e'tirof etishga ko'ra dahshatliroq narsa yo'q dunyoda. Bu aql-idrok uchun ofat va har qanday ma'sum his-tuyg'uni barbod qilish bilan tengdir” (1804 yil, aprel, Robinsonga yozgan xatidan).

Hofiz:

Topmadim bu olam hokida aslo odami,
Boshqa olam, yangi odam qaytadan tuzmoq kerak.

Gyote:

Olam yaratishni yig'ishtir, Olloh,
Endi bunyod qilamiz yakkash.

(“Devon”dan)

Hofiz:

Bilimdonlik va xushxonlik emas SHerozda hech manzur,
Kel ey Hofizki, biz yuzni bo'lak yurtga o'girgaymiz.

Gyote:

Inglizu italyan,
Bu yoqda german, farang.
Mushtni urib kurakka,
O'z-o'zini maqtar, qarang!

(“Devon”dan)

SHu tariqa er kurrasining qariyb ikki qarama-qarshi qutbida joylashgan ikki mamlakat, ikki xalqning ulkan farzandi: buyuk fors Hofizi bilan oliyjanob nemis Gyote o'rtasida maqsad, dunyoqarashda umumiylik, mushtaraklik aniqlanadi.

Qizig'i shundaki, Hofiz:

Gar men kabi tushar esang dom ichra,
Tashlarding o'zingni may ila jom isra.
Dunyoni o'rtaqan oshiq mastdurman,
Biz bilan o'turma, qolma dashnom ichra.

Ruboiysini yaratar ekan, go'yo o'zining bo'lajak nemis xalafi Gyoteni xavf-xatardan ogohlantirayotganday tuyuladi, deydi professor G'.Salomov.² CHindan ham Gyote o'zining hofizona bir maqomda yaratgan va jahon adabiyotining durdonalaridan biri bo'lib qolgan “G'arbu SHarq devoni” uchun o'z davrining sotqin, munofiq malaylari,

² Ўша китоб 23 бет.

milliy mumtozlik va xudbinlik og'ulari bilan sug'orilgan kaltabin ziyolilari tomonidan ozmuncha dashnomlar eshitmadi. Chunki hofizona biyronlik, hofizona jasorat Er yuzining qaysi buurgchagida bo'lmasin – hamma joyda ham jaholat, xudpisandlik va badkirdorlikni ayovsiz yondiradi.

Hammer fon Purgshtalning tarjimalari orqali Hofiz SHeroziyning ajoyib merosi bilan yaqindan tanishgan, uning g'azallari ta'siri ostida nemis adabiyotida yangi janrda zabardast “Devon” ijod qilgan Gyote buyuk fors shoirining avlodlariga qoldirgan muqaddas, musaffo maqsad va niyatlarini o'z xalqiga etkazishda bebaho xizmat ko'rsatdi.

2.2. “G'arbu SHarq devoni” yaratilishi va tadqiqi xususida.

Buyuk nemis mutafakkiri va shoiri Iohann Volfgang Gyotening «G'arbu SHarq devoni» 1819 yilda yaratilgan, 1827 yilga kelib keng tarqatilgan. Bu asarni keyingi o'rinlarda “Devon” deb ataymiz. Gyotening ushbu asari uning do'sti Hammer Purgshtalning buyuk sharq shoiri Hofiz SHeroziydan amalga oshirgan tarjimalari natijasida paydo bo'lgan va ushbu asar turli to'plamlarda, kitoblardan o'rin olgan. Mutaxassislarning aytishlaricha, u 12 ta kitobga sochilgan. 2001 yilda Gyote-SHiller arxivining “Klassik asarlar” bo'limida o'rganilganidan keyin ushbu asarga “YUNESKONing jahon mumtoz adabiyoti qadriyatlarini” muqomi berilgan. YUqorida aytilganidek, Gyotening mazkur asari 12 ta kitobga sochilib ketgan. Avvalo Marianna fon Vellemaer bilan Gyote yozishmalaridan joy olgan, keyingisi 1814 yilda hammer purgshtalning Hofizdan nemis tiliga tarjimalari to'ptamiga kirgan, nihoyat Rudvard Kipling to'plami

Wer sich selbst und andere kennt,

Wird auch hier erkennen:

Orient und Okzident

Sind nicht mehr zu trennen.

Weiter heißt es:

Und mag die ganze Welt versinken,

*Hafis, mit dir, mit dir allein
Will ich wetteifern! Lust und Pein
Sei uns, den Zwillingen, gemein!
Wie du zu lieben und zu trinken,
Das soll mein Stolz, mein Leben sein.*

qismi kiritilgan.

Asar quyidagi qismlardan iborat:

- MUG'ANNIYNOMA
- Hijrat
- Erkinlik
- Tilsimlar
- To'rt marhamat
- Iqror
- Anosir
- Tashrif
- Beadablik
- Qo'pollik va odob
- Borliqda hayot
- Saodatbaxsh aziyat
- HOFIZNOMA
- Vafo timsollari
- YAngi vafo timsollir to'g'risida
- Ishq kitobi
- Ogohlantirish
- Hayolotga cho'mib
- Ofat
- Qanoat
- Mujda

- Sadoqat
- Sir
- TAFRIQNOMA
- Besh xislat
- SHox SHujo' va unga o'xshaganlarga bag'ishlov
- Oliy iltifot
- Firdavsiy so'zi
- Jaloliddin Rumi so'zi
- Zulayho so'zi
- RANJNOMA
- Sayohatning ruhiy xotirjamligi
- Payg'ambar so'zi
- Temur so'zi
- HIKMATNOMA
- Marham
- TEMURNOMA
- Zulayhoga
- ZULAYHONOMA
- Zulayho kitobi
- Aks sado
- Qayta tanishish
- To'lin oy chiqqan kecha
- Maxfiy bitik
- In'ikos
- SOQIYNOMA
- YOz tuni
- MASALNOMA
- Mo'jizaga ishonch
- Marhabo

- FORSIYNOMA
- Keksa otashparas vasifti
- XULDNOMA
- Taqvodor mardlar
- Jannatliy ayollar
- Ijizat
- Aks-sado
- E'zozlangan ayollarga
- Jng oliy maqom
- Ashobi Qahf (Etti uyqudagilar)
- Xayrli tun

1819 yilda SHtutgartda nashr qilingan Gyote kitobining nomi *West-östlicher Divan* (*G'arbu SHarq devoni*) deb nomlangan. Uning ayrim nashrlarini qo'shib yozilgan holatda *Westöstlicher Divan* ko'rinishida ham e'lon qilinganlari bor.

Gyotening "G'arbu SHarq devoni"ning nafaqat nomi, balki mundarijasidan ham sharq nafasi ufurib turganini asar "Mug'anniynoma", "Hofiznoma", "Ishqnoma", "Tavfiqnoma", "Ranjnoma", "Hikmatnoma", "Temurnoma", "Zulayhonoma", "Soqiynoma", "Masalnom", "Forsiynoma", "Huldnoma" deb ataluvchi shn ikki bobidan ham bilan mumkin. Tarjimon bu jihatlarga alohida e'tibor bilan qaragagan.

Professor Akmal Saidov o'zining "Iohan Wolfgang Gyote" nomli kitobida Gyote asliyatidagi barcha boblar to'liq kiritilmaganligini ta'kidlaydi. U tarjimonning bunga munosabatini keltirarkan, kamtarlik bilan "ayrim tarjimalarim o'zimga ma'qul bo'lmaganligi uchun ularni kitobga kiritmadim" deagnini aytadi. Kitobga tartib berishda ayrim so'fiyona ruh va ohangga ega bo'lgan she'rlarni saralab olinganligiga e'tibor qaratilib, mazkur masalaga qaraladigan bo'lsa, bu qisqartirish tarjima matniga putur etkazmagan. Aksincha, bunday daho shoir o'z umrining nuroniylik davrida nima sababdan ma'nan "SHarqqa hijrat qilish" uchun chog'langanligini so'fiyona she'rlar misolida yanada aniq va ravshan aks ettirish imkoni kuchaygan.

O'zbek gyoteshunoslarining ta'kidlashlaricha, Sadriddin Salim tarjimasining ayrim boblari mutarjim Sadriddin Salim buxoriyning bevosita nemis tilidan qilgan tarjimasida turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan va adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan edi. G'aybulla Salomov, Najmiddin Komilov, Salim Jabborov, Kamola Bobojonova kabi mashhur adabiyotshunos va tarjimashunos olimlar o'zlarining ilmiy asar va maqolalarida tarjimon mahoratini yuqori baholagani shular jumlasidan ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Professor Akmal Saidov Gyote ijodi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratib kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Uning mazkur kitobning so'zboshisida keltirgan mana bu so'zlarini keltirish o'rinli:

“Fursatdan foydalanib, kitobxonga Gyotening ijod bog'idan mana shunday yana bir ajib guldasta armug'on etgan o'zbek tarjimonlari xizmatiga alohida urg'u berar ekanmiz, jahon adabiyoti xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan daho shoirning bu soha namoyondalariga bergan ta'rifini eslatishni lozim topdik: “Tarjimonlarni serg'ayrat, tinib-tinchimas sovchilarga o'xshatgung keladi, ular bizga yarim pinhon go'zallikning maqtovini keltirib, uni yuksak darajada yoqimli qilib ko'rsatadilar; ular asliyatga zo'r, kuchli ishtiyoq uyg'otadilar”.

Muallif kitobni G'arbu SHarq adabiy aloqalarining yanada mustahkamlanishiga munosib hissa bo'lib qo'shilishiga umid bildiradi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda o'zbekcha tarjimani nemischa asliyat bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirishni maqsad qildik. Shu bois uning dastlabki qismlaridan boshlab munosabat bildirishga kirishdik. Asarning “Hijrat” deb nomlanuvchi dastlabki faslining nemischa asliyatini keltiramiz:

Nemischa asliyatda:

Nord und West und Süd zersplittern,

Throne bersten, Reiche zittern,

Flüchte du, im reinen Osten

Patriarchen Luft zu kosten,

Unter Lieben, Trinken, Singen
Soll dich *Chidhrs* Quell verjüngen.

Sadriddin Salim tarjimasi:

Taxtlar qulab ne taajjub,
Xarob SHimol, Mag'rib, Janub
Sharqqa hijrat erur vojib,
Unda ishq mayu mutrib
Hamda Hizr suvi bordir,
Boqiy umr senga yordir.

Nemischa asliyatda muallif qofiyani saqlash uchun:

- birinchi misrada - *zersplittern, zittern,*
- ikkinchisida - *Osten, kosten,*
- uchinchisida esa – *Singen, verjüngen*

kabi bir-biriga ohangiy mutanosib so'zlar bilan ifodalaydi.

O'zbek tarjimoni esa, bularga hamohag holatni ta'minlash uchun quyidagilardan foydalanadi:

- ne taajjub, Janub;
- vojib, mutrib;
- bordir, yordir

E'tibor berilgan bo'lsa, har bir misra o'zaro qofiyalanib keladi. Asliyatda *Throne bersten, Reiche zittern* ya'ni *taxtlar quladi, saltanatlar darz ketdi* deyiladi. O'zbekcha tarjimada esa *Taxtlar qulab ne taajjub* bilangina berilib, qofiyani saqlash maqsadida *ne taajjubni* qo'shiladi. Bundan tashqari nemischa asliyatda *reinen Osten (beg'ubor SHarqqa)* deyilsa, o'zbek tilida uni shunchaki *SHarqqa* deyish bilan kifoyalangan. Bu ham vazn va qofiya muammosini hal qilish bilan bog'liq jihat. Asliyatdagi so'zlar o'zbekcha tarjimasida bir qadar o'zgartirilgan. Ammo ma'noda salbiy ta'sir Jumladan, nemischa asliyatda *Unter Lieben, Trinken, Singen* – ya'ni ishq, may va qo'shiq ostida –

deyilsa, o'zbekcha tarjimada - Unda ishqu mayu mutrib deyiladi. Asliyatdagi , Singen (qo'shiq) o'rniga – tarjimadv mutrib (sozanda, cholg'uvchi, ashulachi, hofiz. Mutiribi xush lahja – xushovoz ashulachi. V.Rahmon. Mumtoz adabiyot manbalari lug'ati. – Toshkent: Mumtoz so'z. 2009 yil, B. 225.) variantidan foydalanilgan. Bundan tashqari, asliyatdagi [*Chidhrs Quell*](#) (Xizr chashmasi) o'zbekchada – Xizr suvi deb yanada umumlashtiribroq beriladi.

CHunki *chashmaga* nisbatan *suv* umumiyoq ma'noni anglatadi.

Asliyatda:

Wo sie Väter hoch verehrten,
Jeden fremden Dienst verwehrten;
Will mich freuen der Jugendschranke:
Glaube weit, eng der Gedanke,
Wie das Wort so wichtig dort war,
Weil, es ein gesprochen Wort war.

Tarjimasi:

Hayratlanma yana paydo
Nasli Odam bilan Havo.
Haqqa qabul bo'lsa agar
Munojoti bani bashar
To'lib Inson ziyo bilan
Suhbat etsa Xudo bilan.

Ajdodlarga bir ehtirom,
Mashriqda g'ayr urfi harom
E'tiqodda cheksiz ma'no
Qisqa suxan – fikri dono –

Gavhardan ham qimmat mudom,
Muqaddasdir zero Kalom.

Asliyatda *Wo sie Väter hoch verehrten,*
Jeden fremden Dienst verwehrten (bobolar ulug'lanadigan joyda, har qanday yot odatlar qoralanadi) deyilsa, tarjimada *Ajdodlarga bir ehtirom,*
Mashriqda g'ayr urfi harom tarzida qoyilmaqom qilib o'girilganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu erda o'zbek tarjimon Sadridin Salim asliyatdan ham yuksakroq jaranglaydigan muqobillikni topa bilgan. Zero tarjima o'rni bilan asliyatdan ham ustun bo'lishi mumkin. Agar nemischa asliyatda *Wie das Wort so wichtig dort war* (u erdagi so'z juda muhim bo'lgan) deb tasvirlasa, tarjimada *gavhardan ham qimmat mudom* tarzida yanada yuqoriroq pardaga olib chiqishga erishgan. Ikkinchidan, Gyote o'z asarida Qur'on kalimalarini eng ulug' so'z sifatida e'tiroq qiladi. Buni o'zbekcha tarjimada *Muqaddasdir zero Kalom* tarzida qayta yaratilganki, bu bilan asarning diniy kolorti ham saqlay bilingan.

Asliyatda:

Will mich unter Hirten mischen,
An Oasen mich erfrischen,
Wenn mit Karawanen wandle,
Schal, Kaffee und Moschus handle;
Jeden Pfad will ich betreten
Von der Wüste zu den Städten.

Tarjimasi:

Cho'ponlarga bo'lib hamroh,
Kelsang yayrab dashtu sahro.

Karvon bilan shomu sahar,

Qahva shohi mushku-anbar

Elsang bekas so'qmoqlardan,

Hech kim bilmas so'qmoqlardan.

Nemis tilida *sich erfrischen* – *tozalamoq, sof qilmoq* (Ruscha-o'zbekcha lug'at.

M.Abduraxmanov tahriri ostida. – Moskva, 1968 yil. B.491.) ma'nolarini anglatadi.

Buni o'zbek tiliga *yayramoq* fe'li bilan o'girilgan. Bir qaraganda bir-biriga o'zaro

muqobil kelmaydigandek ko'rinadi. Ammo, tarjimon kontekst zaruriyatidan kelib

chiqib, ayniqsa, cho'pon kabi dashtu dalalarda yurishda *tozalash* yoki *sof bo'lishlik*

emas balki *yayrash* mumkinligini mantiqan to'g'ri topa bilgan. Bu mutarjim Sadriddin

Salim Buxoriyning tarjimada so'z tanlash mahoratidan dalolat beradi. Qiyosni davom

ettiramiz. Asliyatda

Wenn mit Karawanen wandle,

Schal, Kaffee und Moschus handle;

YA'ni:

Agar karvon bilan oldga yursam,

SHarf, kofe va mushk bilan savdo qilaman, - deyiladi.

Tarjimada esa bir qadar o'zgartirishni ko'ramiz:

Karvon bilan shomu sahar,

Qahva shohi mushku-anbar

Jeden Pfad will ich betreten

Von der Wüste zu den Städten.

YA'ni,

Har bir yo'lga kirib bora olaman

Cho'l-biyobondan shaharlargacha.

S.Salim tarjimasida:

Elsang bekas so'qmoqlardan,
Hech kim bilmas so'qmoqlardan.

Tarjimada vazn-qofiya talablari ustunlik qila boshlagan, natijada, tarjimon so'qmoqlar bilan qanoatlangan. SHaharlar tushirib qoldirilgan.

Gyote dashtu-sahrolardan o'tib endi pastu-baland tog'larga etib keladi. Xatar kuchaya boradi.

Bösen Felsweg auf und nieder
Trösten, Hafis, deine Lieder,
Wenn der Führer mit Entzücken
Von des Maultiers hohem Rücken
Singt, die Sterne zu erwecken
Und die Räuber zu erschrecken.

Ma'nosi:

Qo'rqinchli tog' yo'li - pastu baland,
Hofiz, sening qo'shiqlaring tinchlantiradi,
Yuqori elkali xayvon ustida
CHavandoz g'urur bilan boshqarib borsa.
Uning qo'shig'i yulduzlarni uyg'otadi
Va bundan qaroqchilar qo'rqib qochadi.

S.Salim tarjimasi:

Qoyalar tund – xatar behad,

Senga Hofiz bayti madad.
Xachir mingan sayyoh jadal
Hofiz she'rin aytgan mahal,
YUlduzlarga sho'rish solgay,
Qaroqchilar qo'rqib qolgay.

Negadir tarjimon asliyatdagi Maultiers hohem Rücken ya'ni, yuqori elkali, o'rkachli tuyani – *xachir (eshshak)* deb bergan. Bunday holatlarda, ya'ni dashtu-biyobonlarda, ayniqsa, sahrolarda *tuya* deb berish maqsadga muvofiqdir.

Gyote Hofiz she'riyatining badiiyatiga, uning ta'sirchanligii olamiga yanada chuqurroq kirib borishni istaydi. SHarqona tashbehlar, mubolag'alar qo'llashga o'tadi:

Will in Bädern und in Schenken,
Heil'ger Hafis, dein gedenken,
Wenn den Schleier Liebchen lüftet,
Schüttelnd Ambralocken düftet.
Ja, des Dichters Liebeflüstern
Mache selbst die Huris lüstern.

Ma'nosi:

Xoh vannada (hovuzchada) yoki cho'milish xavzasida,
Avliyo Hofiz seni unutishmaydi.
Agar yorning choyshabi shamolda xilpirasa,
Undan ambarning tarovati keladi.
SHoirning she'rlari ohanglaridan
Hurlarning xursandchiligini tuyarsan.

S.Salim tarjimasi:

Hofiz bayti yangrar mudom,

Bazmlarda har subhi shom.
YUz ochgaydir janonalar,
To'siq bilmas ostonalar.
SHivirlagan mahal shoir
Hatto hurlar bo'lgay asir.

Tarjimon asliyatdagi Schleier (choyshab)ini *yuzga taqadigan parda* bilan almashtirgan.
Natijada asliyatdagi *Schleier Liebchen lüftet* yor *choyshabining shamolda hilpirashidan*
keladigan *hid* ham olib tashlanib, o'rniga *janonalarning yuz ochishlari* kiritilgan.

Gyote Hofiz she'riyatidagi ishq va darddan azob chekish onlarini alohida muhabbat
bilan tasvirlaydi.

Asliyatda:

Wolltet ihr ihm dies beneiden
Oder etwa gar verleiden,
Wisset nur, dass Dichterworte
Um des Paradieses Pforte
Immer leise klopfend schweben,
Sich erbittend ew'ges Leben.

S.Salim tarjimasi:

Hasadgo'yning dili botil
Bermoq istab zahri qotil,
To'ssa hamki yo'lni qancha,
Darvozai jannatgacha
Etgay shoir payg'omlari,
Mangu qolgay kalomlari.

“Devon”ning “Erkinlik” deb ataluvchi keyingi qismi dastlabki misralarida Gyote quyidagi to’rtlikni keltiradi:

Lasst mich nur auf meinem Sattel gelten!

Bleibt in euren Hütten, euren Zelten!

Und ich reite froh in alle Ferne,

Über meiner Mütze nur die Sterne.

Ma’nosi:

Kaminaning egarida erkin yurishiga qo’yib ber!

Sen o’z uying, o’z kulbangda qolaqol!

Va men xursandlik bilan butun kenglikka ot solaman,

Qalpog’im ustida faqatgina yulduzlar porlar.

S.Salim tarjimasi:

Egar ustidan judo bo’lmay dame,

Kulba-yu chodirda ham sen qol, hamdame.

SHodmon kezsam, etib sarhadni tark,

Boshim uzra yulduz ham xonishga g’arq.

O’zbek tarjimoni S.Salim asliyatdagi milliy o’ziga xoslikni ifodalovchi “*Mütze*” *qalpoqni* o’zbek kitobxoniga *boshim o’zra* variantida berishni ma’qul ko’radi va asliyatni tarjima tiliga yaqinlashtirish yo’lidan boradi.

Ayni paytda osmondagi yulduzlarni porlashini emas, balki ular ham shoirning *qo’shig’iga g’arq bo’lishini* mubolag’a san’ati vositasida ifodalaydi. Bu ham tarjimon mahoratidan dalolat beradi.

Tarjima diniy kalimalarni qayta yaratish alohida muammolardan sanaladi. Zero nasroniy hududda yaratilgan asarning islomiy xalqlar tiliga o’girishning ham o’zgacha qiyinchiliklari bo’lishi tabiiy. Ikki din, ikki e’tiqod. Ammo tarjimon ishini

engillashtiradigan bir jihat bor. Bu har ikki dinga mansub xalqlarning yagona Xudoga ishonishlaridir. Ana shu mushtaraklik ham tarjimada bir qadar. qulayliklar tug'diradi.

«Talisman» ni o'zbek tiliga “Tilsimlar” deb ko'plikda o'girilgan. Bu she'rriy qism 5 ta to'rtlikdan iborat. 1-to'rtligi:

Gottes ist der Orient!

Gottes ist der Okzident!

Nord- und südliches Gelände

Ruht im Frieden seiner Hände.

U quyidagicha o'girilgan:

SHarqni yaratgandir Xudo,

Mag'ribni etgandir bino.

Ofat yo'qdir o'ng-so'lida

SHimol, Janub Haq qo'lida.

Gottes ist der Orient! Ni so'zma-so'z o'girsak, “SHarq – Xudoniki, Gottes ist der Okzident! –

G'arb Xudoniki, Nord- und südliches Gelände

Ruht im Frieden seiner Hände – SHimol va Janubiy hududlar ham tinch tutish uning qo'lida, - ma'nolarini anglatadi.

3.bob. Goethe she'riyati tarjimasi xususiyatlari.

3.1. Gyothe lirikasining o'zbekcha tarjimasida lirik qahramon ruhiy holatini qayta yaratish.

Tarjimon o'zbek tilidagi matnga bir qator yangi so'zlarni kiritadi. Jumladan, “yaratgan”, “qo'lida” kabilar. Oxirgi ikki misra tarjimasida *antonomik tarjima* usulini qo'llaydi.

Ya'ni asliyatdagi “Tinch tutib tutish uning qo'lida”ni -

Ofat yo'qdir o'ng-so'lida

SHimol, Janub Haq qo'lida deb beradi.

2-nchi to'rtlik:

Er, der einzige Gerechte,

Will für jedermann das Rechte.

Sei von seinen hundert Namen

Dieser hochgelobet! Amen.

O'zbekcha tarjimasi:

Ul o'zi qozi erur,

Barcha el rozi erur.

Ardoqlaymiz yuz nomin,

SHaraflab deymiz: “Omin!”

Agar so'zma-so'z o'giriladigan bo'lsa, Er, der einzige Gerechte – U yagona hakam, Will für jedermann das Rechte – barchaga adolatni tilaydi, Sei von seinen hundert Namen – Uning yuzta nomi bo'lib, Dieser hochgelobet! Amen – SHuni sharaflab aytamiz “Amin”.

Ikkinchi misradagi “Allohning barchaga adolat tilashi”ga muqobil tarzda “Barcha el rozi erur” varianti juda mos tushgan. Muhimi vazn va qofiya qayta tiklangan. Tarjimon shakl jilvakor, ma'no ustivor qabilida to'g'ri yo'ldan borgan.

Uchinchi to'rtlik:

Mich verwirren will das Irren;
Doch du weißt mich zu entwirren.
Wenn ich handle, wenn ich dichte,
Gib du meinem Weg die Richte.

Tarjimasi:

Xato etib adashsam gar,
O'zing mendan bo'l boxabar.
Har yumushda, ijodda ham,
To'g'ri yo'lga boshla, Egam.

Bu erda ikkinchi satrda tarjimon muqobil variantdan foydalangan. Asliyatdagi Doch du weißt mich zu entwirren (Axir sen meni to'g'rilashni bilasanku) deyilsa, tarjimada "O'zing mendan bo'l boxabar" varianti keltirilganki, bu asliyatdagi ma'noni bera oladi. Uchinchi satrda esa Wenn ich handle, wenn ich dichte (Ishda ham she'r yaratashimida ham) deyilsa, handle so'zini yumush tarzida so'zma-so'z berilib, wenn ich dichte (agar men she'r yozsam)ni ijodda ham deb bir oz umumlashtirilganligiga qaramy, aslyatga muqobillik yarata olingan.

Har bir tilda so'zlarning o'zaro birikishida ichki qonuniyatdar bo'ladi. Nemislarda den Weg Richte geben, den richtigen Weg geben (to'g'ri yo'l bermoq) deyilsa, o'zbek tilida bir oz boshqacharoq, ya'ni *to'g'ri yo'lga boshlamoq*, deyiladi. Demak tarjimon o'zbekcha matnda to'g'ir yo'ldan borgan, deyishga asos bor.

To'rtinchi misrada:

Ob ich Ird'sches denk' und sinne,
Das gereicht zu höherem Gewinne.
Mit dem Staube nicht der Geist zerstoeben,
Dringet, in sich selbst gedrängt, nach oben.

O'zbekcha tarjimasi:

Garchi erda banddur xayolot,

Bu keltirar yuksak mukofot.

Rux changmidi yo'qolsa tamom,

Parvoz etar u osmon tomon.

Bu erda uchinchi satrda Mit dem Staube nicht der Geist zerstoßen – chang bilan rux yo'qolib ketmaydi, deyiladi. Tarjimada “Rux changmidi yo'qolsa tamom” savolnomo gap keltiriladi. Ammo ma'no o'sha-o'sha. Muobillik bor. Asliyatda chang yuqoriga, tarjimada osmonga ko'tariladi. Ma'no o'sha-o'sha. SHuning uchun ham tarjimada so'z tanlash masalasi borki, uni o'rnida qo'llash juda muhimdir.

Oxirgi misra:

Im Atemholen sind zweierlei Gnaden:

Die Luft einziehen, sich ihrer entladen:

Jenes bedrängt, dieses erfrischt;

So wunderbar ist das Leben gemischt.

Du danke Gott, wenn er dich presst,

Und dank ihm, wenn er dich wieder entlässt.

O'zbekcha tarjimasi:

Nafas olmoq hamda chiqarmoq erur,

Ikki ehson buni anglamoq zarur.

Biri siqar, o'zgasi esa rohat.

SHular sabab hayot go'zaldir g'oyat.

Ollohga shukur de, nafas kirgan on,

SHukur de, nafas chiqargan zamon.

Uchinchi satrda o'zbekcha tarjimada mutarjim *siqar* so'zini qo'llagan. Bu insonni diqqat qilishi, uni azobga solishi ma'nosida emas, balki mexanik ravishda siqish, ichiga haqo to'ldirib damlash ma'nosida tushunish kerak. Chunki nemischa aslyatda presst so'zi ana shunday ma'nodagi siqishni ifodalaydi. Bizningcha, o'zbekcha tarjima matnida ana shu kabi izohlardan satr ostida yoki kitob oxirida bo'lsa ham keltirib o'tish foydadan holi bo'lmaydi.

Umana olganda "Devon"ning Tilsimlar qismi juda ham yuqori sifatda tarjima qilingan. Ayrim kichik qusurlarni hisobga olmaganida tarjimon muqobil tarjima matni yarata olgan. U aslyatni yaratgan shoirning ruhiga, maqsad muddaosi olamiga kira olganligi ko'rinib turibdi.

"G'arbu SHarq devoni"ning keyingi qismi "Vier Gnaden" (to'rt mehribonlik) deb nomlanadi. Tarjimon-shoir Sadriddin Salim buni yanada chiroyli tarzda "To'rt marhamat" deb o'giran.

Dastlabki ikki to'rtlikda aslyatda quyidagi misralar keltiriladi:

Dass Araber an ihrem Teil
Die Weite froh durchziehen,
Hat Allah zu gemeinem Heil
Der Gnaden vier verliehen.

Den Turban erst, der besser schmückt
Als alle Kaiserkronen;
Ein Zelt, das man vom Orte rückt,
Um überall zu wohnen;

S.Salim tarjimasi:

Arablarga etib marhamat

To'rt narsa bermish Olloh,

Toki bo'lsin quvonch, farog'at

Ularga mudom hamroh.

Asliyatda to'rt mehribonlikni Alloh mukofot tarzida beradi. Tarjimada ularga hamroq qiladi. Ammo mazmunga keskin putur etadigan narsa emas bu.

Ikkinchisida:

Birinchisi salla, chiroyda

SHox tojidan ustivor.

Ikkinchisi – chodir, har joyda

Tiksang, boshpana tayyor.

Tarjimaga e'tibor bersang sallaning shox tojidan ustivorligi juda chiroyli qayta ifodalangan. Keyingi misralardagi Ein Zelt, das man vom Orte rückt, Um überall zu wohnen, ya'ni chodirni qaerga qursan, o'sha joyda yashab ketaverasan, - deyiladi. O'zbekcha tarjimada boshpana tayyor, deb haqiqiy o'zbekcha tarjima yaratilgan. Buni, Evropa tarjimashunosligida einbuergern – tarjimani fuqarolashtirish deb ataladi. CHnuki bunday metodda amalga oshirilgan tarjimada asliyat tili tarjima tiliga, muhitiga yaqin olib kelinadi. Muhimi, asliyatdagi milliy koloritni ifodalashda me'yor buzilmagan bo'lsa bas. Tarjimon bu ishni uddasidan chiqqan.

Ein Schwert, das tüchtiger beschützt

Als Fels und hohe Mauern;

Ein Liedchen, das gefällt und nützt,

Worauf die Mädchen lauern.

Tarjimasi:

Keyingisi – shamshir, u beshak

Botir uchun istehkom.

Oxirgisi qo'shiq – u hurkak

Qizni aylaguvchi rom.

Agar asliyatdagi she'ni so'zma-so'z beradigan bo'lsak, qilich – xuddi qoya yoki baland devor kabi qalqon vazifasini o'taydi;

Qo'shiqcha – qizni rom aylashda kerak va yoqimlidir, - deyiladi. O'zbekcha matnda qizga sifatlash tariqasida hurkaklik kiritilib, uning ta'sirchanligi, go'zalligi yanada oshirilgan, ikkinchidan, qo'shiqchaga erkalash berish o'zbeklarda qabul qilinmagan. SHu bois aytish mumkinki, tarjimon agar Gyote o'zbek bo'lganidan qanday yozgan bo'shlardi? Qabilidagi savolni berib, asliyat oxoriga, milliy xosligiga putur etkazmay, muqobil ravishda xorijiy she'rni o'zbeklarniki qilgan, ular tili bilan aytganda bizning fuqarolikka qbul qilishga erishgan.

Buyuk Gyote sharq tabiatidan, sharqona ohanglardan, sharq go'zallari hurkakligidan mast bo'lib, ularning qo'shiqlaridan ham bahramand bo'lganligini yashirmaydi:

Und Blumen sing ich ungestört

Von ihrem Schal herunter,

Sie weiß recht wohl, was ihr gehört,

Und bleibt mir hold und munter.

Tarjimasi:

Men ham kuylab doimo qo'shiq,

Dilbarlar gulzoridan

Gullar uzdim bo'lib oshiq
Qo'rqmadim ozoridan.

Asliyatda oshiq yorning choyshablari ostidan gulga qarab qo'shiq aytadi va bunga javoban yor uning qo'shiqlarini jon deb tinglaydi va oshiq ham yanavda yosh va sog'lomgini his qiladi. Bu o'rinda S.Salim go'yo yangi tarjima matni yarataganday, nemislar tili bilan aytiladigan bo'lsa, nachdichten – qayta she'r yozganday ko'rinadi. Ammo manzara, lavha, tasvir o'sha-o'sha.

Oxirgi misra ham asliyatga muqobillik kasb etadi:

Und Blum' und Früchte weiß ich euch
Gar zierlich aufzutischen,
Wollt ihr Moralien zugleich,
So geb ich von den frischen.

Tarjimasi:

Goho meva dasturxon ko'rki,
Davramizga marhamat.
Tinglamoqchi erursiz balki
Mendan yangi nasihat.

Keyngi qismni Gyote “Elemente” unsurlar, bo'laklar, qismlar degan ma'noda beradi. Uni tarjimon “Iqror” deb tarjima qilgan. Sarlavhalar tarjimasi - tarjimashunoslikning anchagina mahorat talab qiladigan sohalari sirasiga kiradi. S.Salim nega bunday yo'l tutganligini bilish uchun yana qiyosga o'tish lozim.

Gyoteda:

Aus wie vielen Elementen
Soll ein echtes Lied sich nähren,
Dass es Laien gern empfinden,
Meister es mit Freuden hören?

S.Salim tarjimasi:

Nega qiyin yashirmoq senga?
Tutib bo'lmas olovni pinhon,
Kunduz tutun, tunda alanga –
CHor atrofda bo'lur namoyon.

Gyote she'rini so'zma-so'z beradigan bo'lsak:

Haqiqiy qo'shiqni nechta unsurдан to'qish mumkin,
Buni faqat Ustasi quvonch bilan tinglab kashf eta oladi, shunday emasmi?

Liebe sei vor allen Dingen
Unser Thema, wenn wir singen;
Kann sie gar das Lied durchdringen,
Wird's um desto besser klingen.

Tarjimasi:

Ishqni kim der yashirib bo'lar,
Ko'zlar uni bildirib qo'yar.
Ilhom payti dilni tark etib
CHiqqan she'rni bo'lmas berkitib.

Gyote she'rining so'zma-so'z ma'nosi:

Agar bizning mavzuimiz qo'shiq aytish bo'ladigan bo'lsa,
SHe'rni u yoqdan bu yoqqa qimirlatgandan ko'ra,
Uni jaranglashiga e'tibor bergan ma'qulroq.

Nazarimda Gyote she'r ohangi orqali ishq tomon kirib boradi, tarjimon esa ilhom parisi va yorning ko'zlari orqali. Bu ham taajjubli masala.

«Devon»ning Hofiznoma deb ataladigan qismida shoir Hofiz bilan baxsga kirishadi. U o'zini G'arbning Hofizi deb ko'radi va o'zi bilan sujbati qiladi. Ichki kechinmalarini quyidagi misralarda keltiradi:

Hafis Nameh - Buch Hafis

Sei das Wort die Braut genannt,
Bräutigam der Geist;
Diese Hochzeit hat gekannt,
Wer Hafisen preist.

Beiname

Dichter

Mohamed Schemseddin, sage,
Warum hat dein Volk, das hehre,
Hafis dich genannt?

Hafis

Ich ehre,
Ich erwid're deine Frage.
Weil in glücklichem Gedächtnis

Des Korans geweiht Vermächtnis
Unverändert ich verwahre
Und damit so fromm gebare,
Dass gemeinen Tages Schlechtnis
Weder mich noch die berühret,
Die Prophetenwort und Samen
Schätzen, wie es sich gebühret;
Darum gab man mir den Namen.

Dichter

Hafis, drum, so will mir scheinen,
Möcht' ich dir nicht gerne weichen:
Denn, wenn wir wie andre meinen,
Werden wir den andern gleichen.
Und so gleich' ich dir vollkommen,
Der ich unsrer heil'gen Bücher
Herrlich Bild an mich genommen,
Wie auf jenes Tuch der Tücher
Sich des Herren Bildnis drückte,
Mich in stiller Brust erquickte,
Trotz Verneinung, Hind' rung, Raubens,
Mit dem heitern Bild des Glaubens.

S.Salim tarjimasi:

Rux – kuyov, So'z – kelinchak.
To'ylarin, Hofiz,
Har bir odam bilijak
She'ringdan yolg'iz.

Taxallus

SHoir:

Ayo Muhammad SHamsiddin,

Nechun eling Hofiz deb nom

Qo'ymish senga?

Hofiz:

CHunki Qur'on

Oyatlarin bildim yoddin.

Xotiramda edi mudom

Suralari sharaf kalom.

Ishonch bilan etdim idrok

Tutib doim o'zimni pok,

Menday etgay kim ehtirom

Rasulning har hadisiga.

Unga loyiq zo'r e'tiqod,

SHu sababli Hofiz deb nom

Qo'ymish menga xalq umrbod.

O'zbek tarjimonining yutug'i shundaki, u Sharq falsafasi, dunyoqarashi hamda tasviriy vositalari qo'llanilgan, aniqrog'i sharqona mavzu va g'oyaga ega bo'lgan nemis she'riyati namunasini o'z ona tiliga tarjima qilgan. Tarjimonning ruhiyatiga mos bo'lgan asar unga mos tarjimaviy uslub kaliti topilishiga asos bo'lgan.

3.2. Gyotening „Tungi sayyoh“ she’ri tarjimalarining qiyosiy tahlili.

Gyotening “Tungi sayyoh” nomli she’ri nafaqat Germaniyada, balki undan tashqarida ham juda katta shuhrat qozongan. Ayni paytda u juda ko’p tillarga tarjima qilinganligi bilan ham ajralib turadi. Mazkur she’r nemis tilini chet tili sifatida o’rganuvchilar uchun mo’ljallangan darsliklarning, ayniqsa, maktab va oliy o’quv yurtlari darsliklarining aksariyatig kirganligini ta’kidlash lozim. Germanistlar ushbu she’r va uning turli tillardagi tarjimalariga munosabat bildirib keladilar. Uning ruscha tarjimasini “Nochnoy strannik” (tungi sayyoh) yoki “Nochnoy pesne...” (tungi qo’shiq ...) deb ataydilar. Avval uning nemischa asliyatiga e’tibor qarataylik:

Wanderers Nachtlied

Über allen Gipfeln

Ist Ruh,

In allen Wipfeln

Spürest du

Kaum einen Hauch;

Die Vögelein schweigen im Walde.

Warte nur, balde

Ruhest du auch.

Uning ruscha so’zma so’z tarjimasini:

Nad vsemi vershinami

Tishina,

Vo vsex verxushkax derevev

CHuvstvuesh ti

CHut slishnoe dixane;

Ptichki molchat v lesu

Podajdi tolko, skoro
Otdoxnyosh i ti toje.

O'zbekcha so'zma-so'z tarjimasi:

Boru cho'qqilar uzra
Sukunat hukm suradi,
Barcha daraxtlarning uchlari
Uzra sen bir nafas ovozni sezmayсан;
O'rmonda qushlar jim;
Faqatgina to'xtagin, tezda
Sen ham orom olasan.

Ma'lumki, Gyotening "Wanderers Nachtlied" (Sayyohning tungi qo'shig'i) she'ri Ilmenau (Germaniya) deb nomlanuvchi joy bilan bog'liq. Bu erda Gyote to'xtab o'tishiga to'g'ri kelgan. Gyote mazkur erdagi kichikkina uyda to'xtaydi. Uning ikkinchi qavatidan baland cho'qqi, o'rmon va butun vodiy kaftdek ko'rinadi. Gyote tun bo'yi tabiatning bu go'zal manzarasidan bahra oladi. Uning sehrli ko'rinishi shoirni o'ziga maftun etadi va ushbu she'rni mazkur joyda yozib qo'yadi.

Tungi sukunat, tinchlik, osudalik shoirni hayt to'g'risida fikr yuritishga, xayol surishga undaydi. Bu taxayul natijasi esa, 8 qatorli she'rga joy bo'ladi. Gyote mazkur she'rida shoirning bu dunyodan o'tib borayotganligi hissiyoti ham jamuljam bo'lganligini bilish mumkin.

She'ning tili anchagina sodda va qisqa, ortiqcha uslubiy jimjimadorlik ham yo'q. Bir qaraganda muallif emoçional ta'sirchanlikni ifodalovchi so'zlardan ham foydalanmagandek tuyuladi. She'rda ishlatilgan otlarning barchasi stilistik jihatdan neytral, o'rtamiyona ekanligi ko'zga tashlanadi. Faqatgina birgina istisno borligini ta'kidlash lozim. Bu haqda quyiroqda batafsil to'xtalamiz. Ammo shunga qaramay,

she'r kitobxonda juda ham katta tassurot uyg'otadi, uni qayta-qayt o'qishga undayveradi, o'yga toldiradi.

She'r satrlariga birma-bir e'tibor qarataylik:

Über allen Gipfeln ist Ruh' (butun cho'qqilarda sukunat).

Birinchi misradanoq shoir kitobxon e'tiborini o'zidan uzoq masofada yastanib yotgan tabiat tasviriga qaratadi. E'tibor bering, hozircha uzoq masofadan turib. Bu o'rinda muallif *Gipfeln* (cho'qqilar) degan otni qo'llaydi va unga tavsif sifatida yana bir ot - *Ruh'* (sukunat)ni keltiradi. SHoir o'z atrofiga tabiatni o'raydi va uning ichiga ko'proq , chuqurroq kirib borishga unday boshlaydi. CHO'qqilar va sukunat kabi otlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, yonma-yon keltirish bilan o'ziga xos qishki surat chizadi va ko'z oldimizda, quloqlarimiz yonida tabiatni kzrish va eshitishga jalb qilinganday bo'lamiz.

Ayni paytda biz olamni ifodalovchi ikki unsur – moddiy olam (cho'qqilar) va ruhiy dunyo (sukunat)ga duch kelamiz. Sukunat so'zi esa, nafaqat sukut, balki

Orom olish, dam olish, tinchlik, shovqin solmaslik, tingliksevarlik sifatida ham namoyon bo'la boradi. SHoir kitobxonni jismoniy sukunatdan ruhiy orom olish tomon boshlaydi va bu bilan borliqning mukammal suratini, ichki va tashqi jihatlarining o'ziga xos uyg'unligini tasvirlay oladi.

Endi buning Zohisjon Sodiqov domlamiz tarjimasidagi o'zbekcha talqiniga e'tibor qaratsak:

Butun tog'u toshlar sukunatga g'arq,

Hatto o'rmonlar ham jimlikka mahkum.

Qushlar ham tin olgan

Sen ham ushbu payt

Bir lahza orom ol

Ey go'zal yorim!

O'zbekcha tarjimada tog'u tosh bilan - sukunat bir biriga contrast, qarama qarshi, yonma yon qo'yiladi. Tog'u tosh – sukunatning moddiy ko'rinishi, sukut, sukunatning ruhiy, nomoddiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lgan. Tarjimon keying satrdagi nemischa

Wipfeln soʻzini choʻqqi (Spitze) emas, balki daraxt maʼnosida oʻgiradi. Chunki ushbu soʻzning yana bir maʼnosi aynan daraxtdir. Haqiqatdan ham Gyothe turgan uychadan koʻringan togʻ choʻqqisi bilan uning oʻrtasida oʻrmon, daraxtlar qad rostlagani ham rost. Demak tarjimada har bir soʻz va u yashayotgan kontekstga ham chuqurroq kirib boorish lozimligini unutmasligimiz kerak.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkin. Sadriddin Salimga o'zbek tiliga nemis tilidan tarjima qilish bir tomondan oson ham bo'lgan. Chunki tarjimon SHarq kishisi, tasavvuf, dini islomdan ham xabari bor, komil musulmon kishi. Ikkinchidan Hofizning g'arbona talqinini yana bir bor sharqqa ko'chirish haqida gap boraytganligini tarjimon his qilib turishi kerak. Mohamed Schemseddin ismini o'zbekchaga chinakamiga Muhammad SHamsiddin tarzida o'gira bilgan.

Gyotening "G'arbu SHarq devoni" o'zbekcha talqini borasida quyidagilarni aytish mumkin:

- Buyuk mutafakkir Gyote G'arb olamidagi ijtimoiy-siyosiy tuzum va madaniy haytdagi muammolarni tanqid ostiga olish uchun sharq mutafakkirlari ijodiga murojaat qilgan.
- Mazkur "Devon"da ilgari surilgan ijtimoiy fikrlar Gyote yashagan davrdagi nafaqat madaniy, balki siysiy tuzumga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi
- Hofiz ijodidagi ramslar, sharqona falsafa, so'fiylikning badiiy talqini Gyoteni hayratga soldi.
- Gyote ijodida yangi davrning boshlanishida tarjimaning o'rni katta bo'ldi. Bunda G'ammer Purgshtal tarjimasida Hofiz ijodi bilan tanishish Gyote uchun katta maktab bo'ldi. U nemis tilida hazallar va sharqona she'rlar mashq qildi.
- O'zbek tarjimoni Sadriddin Salim Gyotening "Devon"ini juda katta tajriba va matonat bilan o'zbek tiliga tarjima qildi.
- Tarjimaning sifati borasida ko'plab tadqiqotlar yaratildiki, ular kelajakda maxsus o'rganishi lozim.

Gyotening "Tungi sayyoh" she'ri o'ziga xos badiiy kashfiyot. Uning o'zbekcha tarjimalarini yaratishda mavjud ruscha tarjimalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. M., 1966, s.454-457.
2. A.I.Gertsen. Pisma ob izuchenii prirodi.. – M.b 1944. S. 95.
3. Gyote Iohann Wolfgang. “G’arbu SHarq devoni”. S.Salimov tarjiması. Zakovat durdonalari kitobida. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2012. - 162-253 betlar.
4. Gyote «Zapadno-vostochniy divan». – Moskva: Nauka, 1973. S. 29.
5. Goethe. West-Östlichehr Divan. Leipzig, 1976.
6. Jumaniyoz SHaripov. Ruschadan o’zbekchaga she’riy tarjimaning ayrim masalalari, O’zFA nashriyoti, Toshkent, 1959.
7. Komilov N. Ibn Sino va Dante. - Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. - 234 b.
8. Komilov N. Bu qadimiy san’at. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. – 192 b.
9. Komissarov V.N. Slovo o perevode // Ocherk lingvisticheskogo ucheniya o perevode. – Moskva: IMO.,1973. – 215 s.
10. Leviy Irji. Iskusstvo perevoda. - Moskva: Progress, 1980. – 396 s.
11. Lilova A. Vvedenie v obshchuyu teoriyu perevoda. – Moskva: Visshaya shkola, 1985. - S. 115-147.
12. Maqsud SHayxzoda. Asarlar. 6 tomlik. 4-tom. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972 y. B.157.
13. Nurmatov U. Tragedii SHillera na uzbekskom yazike: Avtoref. dis... kand. filol. nauk. - Tashkent: 1985. - 21 b.
14. Nurmurodov Y. O’zbek folklorini o’rganish tarixi va uni olmon tiliga ilmiy-adabiy tarjima qilish muammolari: Filol. fanlari nomz. diss. avtoreref. - Toshkent: 1983. - 21 b.
15. Olimov S. Alisher Navoiy asarlaridagi she’riy san’atlarni tarjimada qayta yaratish va shakl berish muammolari: Filol. fanlari nomz. diss. avtoreref. - Toshkent: 1985. - 21 b.

- 16.Olimov S. Qofiyaga mingashgan so'zlar. Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. G'.Salomov tahriri ostida. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 1980 – 132 b.
- 17.Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 220 b.
- 18.Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1983 . - 220 b.
- 19.Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.- Toshkent: Fan, 1980. - 158 b.
- 20.Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 190 b.
- 21.Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 280b.
- 22.Salomov G'., Umirov S.. Tolibnoma – Toshkent: SHarq, 1996.
- 23.Salomov G'., Nazarov B. SHekspir ijodi bilan yuzma-yuz. // “Vilyam SHekspir. Otello”. kitobida. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti., 1991. – B.9.
- 24.Salomov G'., N.Komilov. Do'stlik ko'priklari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 221 b.
- 25.Salomov G'., Karomatov H. “Sohibqiron Tumur” fojeasining sarchashmalari va adabiyotlararo jarayon / Tarjima muammolari. maqolalar to'plami. - Toshkent: Fan, 1991, - B. 7-21.
- 26.Sodiqov Z. YUsuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarining olmoncha ilmiy-adabiy talqinlari: Filol. fanlari nomz. diss. avtoreref. - Toshkent: 1994. – 20 b.
- 27.Sodiqov Z. YUsuf Xos Hojibning til bilish va tarjimaga munosabati // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2000. - № 1. - B. 43-47.
- 28.Sodiqov Z. So'z ma'nosi // Tafakkur. – Toshkent, 2000 - № 3. - B.116-118.
- 29.Sodiqov Z. “Qutadg'u bilig”dagi frazeologizmlarning olmon tiliga tarjimasi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004. - № 2. - B. 57-60.
- 30.Sodiqov Z. YUsuf Xos Hojib va Imom Al G'azzoliy // SHarq yulduzi. – Toshkent, 2006. - № 3. - B. 150-154.
31. Tarjima san'ati // Maqolalar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975-1986.